



MULOQOTLARDA AQSH BILAN PARLAMENTLARARO VA HUDUDLARARO ALOQALARNI YANADA RIVOJLANTIRISH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan Vashington shahrida bo‘lib turibdi.



Davlatimiz rahbari Vashington shahriga tashrifi doirasida 5-noyabr kuni o‘ziga ajratilgan qarorgohda AQSH Kongressi Vakillar palatasi a‘zolari Bill Xayzenga, Kerol Miller va Sidni Kamlager-Davni qabul qildi.

O‘zbekiston bilan AQSH o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, ikki mamlakat parlamentlarining amaliy hamkorligini kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Qonun chiqaruvchi organlar o‘rtasidagi aloqalar jadal rivojlanib borayotgani, AQSH Kongressida O‘zbekiston bilan hamkorlik bo‘yicha Kokus samarali faoliyat olib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Har yili Vakillar palatasida Kokus ko‘magida ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilayotgan O‘zbekiston kunlari o‘tkazib kelinmoqda.

Kongress oliy darajada erishilgan, eng avvalo, savdo-iqtisodiy, investitsiya-viy va madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirishga doir kelishuvlarni amalga oshirishga har tomonlama ko‘maklashishi muhim ekani ta’kidlandi.

Hududlararo aloqalarni kengaytirish, kongressmenlar vakillik qilayotgan G‘arbiy

Virjiniya, Michigan va Kaliforniya shtatlari bilan amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga alohida e‘tibor qaratildi.

Uchrashuv yakunida AQSH Kongressi vakillarining O‘zbekistonga tashrifini uyushtirish, shuningdek, ikki mamlakat hududlari rahbarlari boshchiligidagi ishbilarmon doiralar delegatsiyalarining o‘zaro tashriflarini tashkil etishga kelishib olindi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vashington shahriga amaliy tashrifi doirasida o‘ziga ajratilgan qarorgohda AQSH Senatidagi Markaziy Osiyo bo‘yicha Kokusning hamraisi, senator Stiv Deynsni qabul qildi.

O‘zbekiston bilan AQSH o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari parlamentlararo aloqalarga, xususan, Senatdagi Markaziy Osiyo bo‘yicha Kokus faoliyatiga yuqori baho berdi.

Ikki tomonlama hamkorlikda misli ko‘rilmagan yuksak darajaga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo ko‘rsatkichlari o‘smoqda, AQSHning

yetakchi kompaniyalari bilan muvaffaqiyatli kooperatsiya loyihalarining soni ko‘paymoqda.

Keyingi oylarda rekord qiymatdagi kelishuv va shartnomalar imzolandi. Bu galgi tashrif davomida yangi iqtisodiy hujjatlar imzolaniishi rejalashtirilgan. AQSH Kongressi mazkur kelishuvlarning amalga oshirilishini qo‘llab-quvvatlashi muhim ekani ta’kidlandi.

Senator Stiv Deyns vakillik qilayotgan Montana shtati bilan faol hamkorlikni davom ettirishga alohida e‘tibor qaratildi. Shtat ishbilarmonlari delegatsiyasining O‘zbekistonga tashrifini tashkil etish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Shuningdek, tomonlarni qiziqitirgan dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan fikr almashildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo‘shma Shtatlariga amaliy tashrifi davom etmoqda.

O‘za

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

DOHADA O‘TKAZILGAN BUTUNJAHON SAMMITIDA O‘ZBEKISTON HAR TOMONLAMA YETAKCHILIKNING YORQIN NAMUNASINI NAMOYISH ETDI

Xorijiy ekspertlar O‘zbekiston Prezidentining Qatarga amaliy tashrifi va ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon sammitidagi ishtiroki haqida



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qatar Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning taklifiga binoan 3-4-noyabr kunlari ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon sammitida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.

Bu voqealar ijtimoiy sohada global hamkorlikni mustahkamlash hamda O‘zbekiston — Qatar munosabatlarini yanada chuqurlashtirish nuqtayi nazaridan siyosiy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston rahbarining bunday nufuzli xalqaro forumda ishtirok etishi mamlakatning barqaror rivojlanish hamda ijtimoiy adolat masalalarida faol va mas‘uliyatli pozitsiyasini ifodalaydi.

► Davomi 2-betda



Prezidentimiz 4-noyabr kuni Doha shahrida o‘tkazilgan Ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha ikkinchi jahon sammitida ishtirok etib, hamjamiyat oldida inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan yangi g‘oya va muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Mazkur chiqish nafaqat O‘zbekistonning yangi ijtimoiy siyosiy yo‘nalishi, balki mamlakatimizning xalqaro maydondagi faol fuqarolik pozitsiyasini ham yorqin ifoda etdi. Binobarin, davlatimiz rahbari “Inson qadri uchun” tamoyilini davlat siyosati va jahon

miqyosidagi hamkorlikning bosh mezon sifatida ilgari surdi. Bu g‘oya yangi O‘zbekiston konsepsiyasining markazida turadi va yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ham mustahkamlangan.

► Davomi 2-betda



Buyuk o‘zbek yo‘li

“SAMARQAND RUHI” —
YANGI DUNYO TARTIBINI MA’NAVIY
ASOSDA QURISH KONSEPSIYASI

Dunyoda shunday tarixiy shaharlar borki, nafaqat qit‘alar, balki butun insoniyatning ma’naviy qiyofasini belgilab bergan. Samarqand ana shunday shaharlardan. Ko‘hna va hamisha navqiron kent asrlar davomida Sharq va G‘arbnining madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasidagi buyuk muloqot maskani sifatida tanilgan. Bugun esa u yana bir bor jahon diqqat markazida — UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi orqali butun insoniyat tarixida yangi sahifa ochmoqda.



Zero, bu anjuman shunchaki xalqaro miqyosli diplomatik tadbir emas. U, avvalo, yangi dunyo tartibida gumanitar siyosat, ma’naviyat va madaniyat orqali tinchlikni mustahkamlash g‘oyasining yangi bosqichini boshlab berdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Samarqanddagi ushbu minbardan yangragan nutqi bugungi beqaror, geosiyosiy ziddiyatlarga to‘la dunyoda insonni, ma’naviyatni, merosni, ilm va adolatni markazga qo‘yish da‘vati bo‘ldi.

UNESCO Bosh konferensiyasi odatda Parijdagi bosh qarorgohda o‘tkazilardi. Ammo so‘nggi 40 yil ichida ilk bor bu forum Fransiyadan tashqarida — Samarqandda bo‘lib o‘tdi. Shuning o‘zi ham yurtimizning xalqaro nufuzi, dunyodagi ma’naviy va madaniy markaz sifatidagi obro‘sini yorqin tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bu holat yangi O‘zbekistonning ilm, ma’rifat va madaniyat orqali dunyo bilan muloqot qilish tamoyilining amaliy natijasi ekanini ko‘rsatadi.

► Davomi 3-betda



Bugungi kunda mamlakatimizda erkin va farovon hayot, demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi islohotlar samaradorligini ta’minlashda kasaba uyushmalarining ham salmoqli hissasi bor.

Zero, mamlakatimizdagi tub ijobiy o‘zgarishlar jarayonida eng yirik jamoat tashkiloti — kasaba uyushmalari ham faol ishtirok etmoqda. Xususan, ijtimoiy sheriklik va muloqot tamoyillari asosida mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari va mehnat huquqlarini himoyalash bilan birga aholi farovonligini oshirish, bandlikni ta’minlash, ularga

munosib mehnat sharoitlarini yaratish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni kunlarda O‘zbekiston kasaba uyushmalarining 120 yilligi keng nishonlanmoqda. Bugungi kunda kasaba uyushmalari faoliyati samaradorligini oshirish, ishchi-xodimlarga munosib mehnat sharoiti yaratish, haq-huquqlarini himoya qilishning samarali tizimini joriy etish kabi

yo‘nalishlarda tizimli ishlar qilinmoqda. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Salkam 120 yillik tarixga ega O‘zbekiston kasaba uyushmalari faoliyati davomida yuksalish va pasayish davrlari ham yuz bergan, lekin bu tashkilot hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan”.

► Davomi 5-betda



Jumanazar OTAJONOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda keyingi yillarda ijtimoiy davlat konsepsiyasi amalda shakllandi. Xususan, ijtimoiy himoya dasturlari yagona tizim, ya'ni Ijtimoiy himoya milliy agentligiga birlashtirildi. Kambag'allik darajasi 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqargan bo'lsa, mahalla tizimi orqali har bir xonadon va oila ijtimoiy himoya qilinayapti. Bu islohotlar "Insonlar davlat uchun emas, davlat insonlar uchun xizmat qiladi" degan tamoyilning amaliy ifodasidir.

Prezidentimiz jahon miqyosidagi ijtimoiy muammolarga yechim izlash va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, 1,1 milliarddan ziyod inson kambag'allikda yashashi qayd etilib, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish maqsadida Global ijtimoiy adolat fondini tuzish taklifi etildi. Bu tashabbus BMtning Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang, muhimi, rivojlanayotgan mamlakatlarning resurs bazasini mustahkamlash imkonini beradi.

Texnologik inqilob va sun'iy intellektning rivojlanishi natijasida ishsizlik o'sishi fonida "ijtimoiy mas'uliyat va munosib mehnat bo'yicha global tashabbus"ni ishlab chiqish taklifi ham alohida ahamiyatga ega. Bu inson mehnatining qadriini asrashga qaratilgan strategik yondashuvdir.

Davlatimiz rahbari iqlim o'zgarishi masalasini faqat ekologik muammo emas, ijtimoiy muammo sifatida ham ko'rib chiqish lozimligini ta'kidladi. Bu doirada Orolbo'yi hududida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangi modelini joriy etish rejasini jahon miqyosida muhim innovatsion tajriba bo'lishi mumkin.

Ilgari surilgan tashabbuslar xalqaro hamjamiyatni "inson markazidagi rivojlanish modeli" atrofida birlashtirishga qaratildi. O'zbekistonning yangi ijtimoiy rivojlanish modeli ichki siyosatda, jahon miqyosida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, mamlakatimizdagi islohotlar — ta'lim tizimidagi modernizatsiya, mehnat bozori erkinlashuvi, gender tenglik va ijtimoiy himoyaning raqamlashuvi global miqyosda ham dolzarb yechim sifatida tan olinmoqda. Umuman olganda, davlatimiz rahbarining Doha sammitidagi nutqi O'zbekistonning yangi ijtimoiy siyosat falsafasi va xalqaro nufuzining amaldagi ifodasi bo'ldi. Unda jahon hamjamiyatini barqaror rivojlanish, ijtimoiy adolat va inson qadriini ta'minlash yo'lida birlashishga chaqiruv yangradi.

Taraddud

O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, umuman, barcha yo'nalishda yuksak barqaror taraqqiyot, 38 milliondan ortiq nufusli yurtdoshlarimizning farovon hayoti, porloq kelajagi yo'lida shaxdam borayotgan karvonga o'xshaydi. Albatta, ushbu yo'lni bosib o'tish oson bo'lmaydi. Uning o'ziga yarasha o'nqir-cho'nqirlari bor. Karvonning esa o'zgarmas qoidasi shu — uning hech bir a'zosi ortda qolib ketmasligi kerak. Barcha birdek nurlil manzilga qadam qo'yishi zarur.

Shu bois, mamlakatimizda kambag'allik domiga tushib qolgan, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, nogironligi bor, boquvchisini yo'qotgan shaxslarga turli imtiyoz va qulayliklar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasidagi loyiha va tashabbuslar ayni mana shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar raqobatbardoshligini oshirish, barcha yo'nalishda bozor tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish jarayonida bunday oilalarni qo'llab-quvvatlash zaruratiga aylanmoqda. Misol uchun, O'zbekistonda keyingi yillarda yoqilg'i-energetika tarmog'ini isloh qilish yo'lida tarif siyosati yanada takomillashtirilaypti.

Albatta, bu o'zgarish va yangilanishlar aholini uzluksiz energiya resurslari bilan ta'minlash hamda tarmoqdagi kamchiliklarni to'g'rilash, kerakli modernizatsiya ishlarini bajarish maqsadida qilinmoqda. Qisqasi, barcha islohotlar zamirida aholi farovonligini oshirish, yashash sharoitini yanada yaxshilash maqsadi mujassam.

Prezidentimizning 2025-yil 2-apreldagi "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishda ehtiyojmand aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida yoqilg'i-energetika sohasini zamon talablari asosida rivojlantirish bilan bir qatorda ijtimoiy ehtiyojmand aholini qo'llab-quvvatlash vazifasi belgilangan. Boshqacha aytganda, ushbu qaror ikki muhim ustuvor yo'nalishni uyg'unlashtirib turibdi.



KUZ-QISH MAVSUMI MILLIONDAN ORTIQ EHTIYOJMAND OILAGA MODDIY YORDAM BERILMOQDA

Bir tomondan hujjatda belgilangan vazifalar tarmoqda bozor mexanizmlarini joriy etish, samaradorlik va raqobatni oshirish orqali butun iqtisodiyot uchun barqaror manfaatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Ikkinchi tomondan esa bu jarayonda ijtimoiy adolat mezonlari qat'iy saqlanib, aholi, ayniqsa, ehtiyojmand qatlamlarning manfaati muhofaza qilingan.

Joriy yil 1-maydan 2027-yil 1-aprelga qadar aholining eng ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi loyihalar amaliyotga kiritildi. Jumladan, elektr energiyasi iste'moli bo'yicha — oyiga bazaviy me'yordan 150 kilovatt/soatgacha, tabiiy gaz iste'moli bo'yicha — isitish mavsumida oyiga 250 kub metr gacha, qolgan davrlarda esa 150 kub metr gacha ortiqcha sarflangan qismi uchun davlat tomonidan kompensatsiya to'lab beriladi.

Tasavvur qiling, mezonlarga to'g'ri keluvchi oila bir oyda 350 kilovatt/soat elektr energiyasi sarfladi. Ushbu sarfning 200 kilovatt/soati uchun oila o'z hisobiga 600 so'mdan pul to'laydi. Lekin 201 dan 350 kilovattgacha bo'lgan qo'shimcha 150 kilovatt/soatning narxidagi farq davlat tomonidan qoplanadi.

Bu nima degani? Oila o'z iste'moli uchun zarur energiyadan erkin foydalanishi mumkin, ammo ortiqcha xarajatning og'ir yuki uning a'zolari zimmasiga tushmaydi. Chunki davlat bu yukni o'ziga olib, oilaning qo'lida qo'shimcha mablag' qolishiga sharoit yaratadi. Bu pul boshqa xarajalar, xususan, bolalarning ta'lim-tarbiyasi, sharoitini yaxshilash yoki biznes tashabbuslarni amalga oshirishga sarflanishi mumkin.

Qarordan ko'zlangan maqsad bozor iqtisodiyotini rivojlantirish jarayonida ijtimoiy barqarorlik va xalq farovonligini birdek ta'minlashdan iborat. Shunday qilib,

kompensatsiyalangan har bir so'm oilalarning kelajakka ishonchini mustahkamlovchi, ijtimoiy adolat va hamjihatlik ramzi sifatida namoyon bo'lmoqda.

— Prezidentimizning 2025-yil 2-apreldagi tegishli qaroriga asosan 2025-2026-yil isitish mavsumida aholining ehtiyojmand qatlamiga shu yil 1-noyabrdan 1 million so'mdan bir martalik moddiy yordam to'lash boshlandi, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi bosh mutaxassisi Madina Azizova. — Bu bo'yicha 1 million 162 mingga yaqin ehtiyojmand oila ro'yxati shakllantirildi. Shundan 822 mingtasi "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" yoki Kambag'al oilalar reyestrida mavjud, 287 mingtasi "mahalla yettligi" xulosasiga ko'ra qo'shimcha ravishda shakllantirilgan hamda 53 mingtasi kambag'allikdan chiqib, yo'qillik domiga qayta tushish ehtimoli yuqori oilalardir.

"Mahalla yettligi" qo'shimcha ehtiyojmand oilalarni shakllantirishda, birinchi navbatda, boquvchisini yo'qotgan 34 ming oila, o'zgalar parvarishiga muhtoj, yolg'iz 7000 kexsa, nogironligi bor 76 ming fuqaro, oila a'zolarida og'ir kasalligi bor 24 ming xonadonga alohida urg'u berdi. Shuningdek, gaz ta'minoti yo'q 2000 dan ortiq ko'p qavatli uyda istiqomat qiluvchilar hamda bir xonadonda uch va undan ortiq oila bo'lib yashovchi 26 mingga oila kiritildi.

Moddiy yordam pulini berishda aholi orasida faqat nafaqa yoki pensiyaga yashovchilar, yordamga muhtoj va oila boquvchisi xorijda ishlayotganlarning ijtimoiy holati ham inobatga olindi.

Ro'yxatni shakllantirish jarayonida zamonaviy texnologiyalar, raqamlashtirilgan ma'lumotlardan unumli foydalanilishi natijasida moddiy yordam tom ma'noda ehtiyojmandlarga yetib borishi, adolat

tamoyillari asosida taqsimlanishiga zamin yaratildi. Har bir oilaning mol-mulki holati uy-joy va avtotransport bo'yicha maxsus "skoring" tizimi orqali baholandi. Natijada iqtisodiy barqaror, ya'ni o'ziga to'q 99 mingdan ortiq oilaning yordam ro'yxatiga tushib qolishining oldi olindi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi bosh mutaxassisining izohlashicha, moddiy yordam miqdori bejiz 1 million so'm etib belgilanmagan. Tahlillarga ko'ra, 2024-2025-yil isitish mavsumida ushbu oilalar o'rtacha 254 kilovatt elektr va 514 kub tabiiy gaz iste'mol qilgan. Tariflarning oshishi natijasida ularning xarajati taxminan 815 ming so'mga ortadi. To'lanishi ko'zda tutilgan moddiy yordam ushbu xarajetni to'liq qoplaydi.

Mazkur qaror nafaqat energetika sohasini zamonaviy bozor qonuniyatlarini asosida rivojlantirishga turki berdi, balki aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning mutlaqo yangi tizimini ham shakllantirdi. Kompensatsiya va imtiyozlar mexanizmi har bir xonadon uchun ilojsiz xarajatlarni yengillashtirmoqda. Shu bilan birga, kelajak rejalariga yo'l ochmoqda. Oilalar qo'lida qolgan mablag' ularning hayotiy muhim boshqa ehtiyojlariga yo'naltirilib, ijtimoiy taraqqiyotning yangi manbai sifatida xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, energetika sohasidagi islohotlar mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirish bilan bir qatorda aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan adolati va insonparvar siyosat namunasini sifatida tarixda qolishi shubhasiz.

Sanjar ESHMURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

DOHADA O'TKAZILGAN BUTUNJAHON SAMMITIDA O'ZBEKISTON HAR TOMONLAMA YETAKCHILIKNING YORQIN NAMUNASINI NAMOYISH ETDI

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Dohada bo'lib o'tgan ijtimoiy rivojlanish bo'yicha ikkinchi Butunjahon sammitidagi nutqi bilan tanishib chiqdim. Menimcha, Prezident tomonidan taqdim etilgan tashabbuslar nafaqat strategik jihatdan, balki insonlarning qadr-qimmatini va kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega.

Boshlanishi 1-betda

Xalqaro ekspertlar ta'kidicha, O'zbekiston yetakchisi tomonidan ijtimoiy rivojlanish bo'yicha ikkinchi Butunjahon sammitidagi nutqida ilgari surilgan takliflar zamonaviy ijtimoiy siyosat modellarini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Antonio ALONSO,
San Pablo universiteti professori
(Ispaniya):



— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Dohada bo'lib o'tgan ijtimoiy rivojlanish bo'yicha ikkinchi Butunjahon sammitidagi nutqi bilan tanishib chiqdim. Menimcha, Prezident tomonidan taqdim etilgan tashabbuslar nafaqat strategik jihatdan, balki insonlarning qadr-qimmatini va kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega.

Adolat, tenglik va zaif guruhlarini himoya qilish tamoyillari doim qo'llab-quvvatlanib kelingan. O'zbekistonda kambag'allik darajasini 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirish ulkan yutuq bo'lib, bu tizimli va maqsadli islohotlarning samarali yo'lidan dalolat beradi.

Ijtimoiy adolat uchun global jamg'arma tashkil etish tashabbusi ulkan xalqaro salohiyatga ega. Bugungi kunda ijtimoiy tengsizlik kuchayib borayotgan sharoitda bunday tuzilma global hamjamiyatning kambag'allikka qarshi kurashishdagi sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish uchun kuchli vositaga aylanishi mumkin.

Raqamlashtirish va sun'iy intellekt davrida mehnat bozorining zamonaviy qarashlarini aks ettiruvchi "Ijtimoiy javobgarlik va munosib mehnat bo'yicha global tashabbus" g'oyasi ham bir xil darajada muhimdir. Ushbu yondashuv zamon ruhiga mos keladi va texnologik taraqqiyot hamda insoniy qadriyatlar o'rnatidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan.

Prezident, shuningdek, ta'limning barqaror rivojlanishda asosiy omil sifatidagi rolini haqli ravishda ta'kidladi. O'zbekistonda ta'limga e'tibor qaratgan holda ochlik va kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha global ittifoq sammitini o'tkazish taklifi mamlakatning gumanitar kun tartibida yetakchilikka sodiqligini namoyish etadi.

Mehnat migrantlarini himoya qilish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishni bandlik dasturlariga integ-ratsiyalashga qaratilayotgan e'tiborni

yuqori baholayman. Bu O'zbekistonning odamlar va tabiat bir butun deb hisoblangan inklyuziv va mas'uliyatli rivojlanishni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlashini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqi gumanistik yetakchilikning yorqin namunasini va global hamkorlikning yangi falsafasi — insoniyat, uning sha'ni va qadr-qimmatini yo'lida hamkorlikni aks ettirdi. Ishonchim komilki, bildirilgan tashabbuslar sayyoramizda ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishni mustahkamlash uchun poydevor yaratadi.

Albert TAM,
Szyanski moliya va iqtisodiyot
universiteti professori (Xitoy):



— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Dohada bo'lib o'tgan sammitidagi nutqini vazmin, konstruktiv va strategik jihatdan puxta o'ylangan dastur deya baholayman. Davlatimiz rahbari o'z nutqida milliy yutuqlarni namoyish etish bilan birga global tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, kambag'allik darajasining 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqargani haqidagi aniq raqamlar mamlakatdagi islohotlar jiddiy va samarador ekanini tasdiqlaydi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilishi esa ijtimoiy muammolarni hal etishda tizimli yondashuv mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Prezidenti ilgari surgan tashabbuslar keng qamrovli va dolzarb bo'lib, zamonaviy dunyo oldida turgan asosiy muammolarni o'z ichiga oldi. Xususan, Global ijtimoiy adolat jamg'armasini tashkil etish bo'yicha taklif ayni vaqtda bildirilgan bo'lib, jahon miqyosida kambag'allikka qarshi kurashni institutsional asosda yo'lga qo'yishga qaratilgan.



Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan e'lon qilingan Orolbo'yi mintaqasi uchun ekologik muammolarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bog'laydigan, barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keladigan yangi modelini ta'kidlash juda muhim.

Umuman olganda, mazkur nutq O'zbekis-tonning jahon sahnasidagi o'rni mintaqaviy, global darajada mustahkamlashga qaratilgan muhim qadam bo'ldi. Doha deklaratsiyasini faol qo'llab-quvvatlash esa mamlakatning xalqaro hamkorlikka sadoqatini yaqqol namoyon etdi.

Muhammad TAL'AT,
"Al-Jumhuriya" nashri bosh muharriri
o'rinbosari (Misr):



— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qatar Davlatiga tashrifi ikki qardosh xalq o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadamdir. Ushbu tashrif nafaqat O'zbekiston — Qatar munosabatlari uchun yangi uflarni ochdi, balki o'zaro hurmat, ishonch va umumiy manfaatlariga sodiqlikka asoslangan konstruktiv diplomatiyaning yorqin namunasiga aylandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Dohada bo'lib o'tgan ijtimoiy rivojlanish

bo'yicha ikkinchi Butunjahon sammitida ishtirok etishi O'zbekistonning global jarayonlarda mas'uliyatli va faol ishtirokchi sifatidagi o'sib borayotgan rolini namoyish etdi.

O'zbekiston yetakchisining ijtimoiy adolat uchun global jamg'arma yaratish va mehnat migrantlarini ijtimoiy himoya qilishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslari xalqaro qo'llab-quvvatlashga loyiqdir, chunki ular adolati, inklyuziv va barqaror dunyoni qurishga sodiqlikni aks ettiradi.

O'zbekiston Prezidenti va Qatar Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy o'rtasidagi uchrashuv alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu mulotot investitsiyalar, "yashil" energiya, transport, turizm va ta'lim sohalaridagi hamkorlikni yanada kengaytirish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo hajmi 45 foiz o'sishi o'zaro qiziqish va ishonchni namoyish etadi, madaniy va gumanitar aloqalar esa tobora mustahkamlanib bormoqda.

Ishonchim komilki, O'zbekiston Prezidentining Qatarga tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlari tarixida yangi bosqichni boshlab beradi, xalqlarini umumiy farovonlikka yaqinlashtiradi. Axir bunday tashriflar Sharqiy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi do'stlik ko'priklarini mustahkamlaydi, butun dunyoda tinchlik, taraqqiyot va ijtimoiy adolati tang'ib qiladi.



Humayun XON,
xalqaro munosabatlar bo'yicha ekspert
(Pokiston):

— O'zbekiston yetakchisining Qatarga tashrifi va Dohada bo'lib o'tgan ijtimoiy rivojlanish bo'yicha ikkinchi Butunjahon sammitida ishtirok etishi rasmiy Toshkentning xalqaro mavqeiini mustahkamlagan muhim voqealar bo'ldi.


Uning ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va inson qadr-qimmatini masalalariga bag'ishlangan nutqi keng qiziqish uyg'otdi va forum ishtirokchilari tomonidan yuqori baholandi.

O'zbekiston Prezidenti ijtimoiy siyo-sat va xalqaro hamkorlik bo'yicha strategik qarashlarini aks ettiruvchi qator tashabbuslarni ilgari surdi. Ijtimoiy mas'uliyat va munosib mehnat bo'yicha global tashabbus taklifi bandlik va texnologik o'zgarishlarning zamonaviy muammolariga javob bo'ldi.

Alohida e'tibor barqaror rivojlanishning asosiy omili sifatida ta'limga bag'ishlangan edi. Prezident kelajakdagi sammitni O'zbekistonda o'tkazishni taklif qildi, unda ta'lim kun tartibining markaziy mavzusi sifatida qaraldi. Janubiy va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan Toshkentda mehnat migr-rantlarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilish bo'yicha xalqaro forum tashkil etish tashabbusi katta qiziqish uyg'otdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Dohadagi nutqi yangi O'zbekistonning odamlar, ijtimoiy adolat va xalqaro birdamlikka qaratilgan yangi tashqi siyosat falsafasini aks ettirdi. E'lon qilingan tashabbuslar Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga va umumiy manfaatlar yo'lida global hamkorlikni mustahkamlashga hissa bo'lib qo'shiladi.

"Dunyo" AA



Boshlanishi 1-betda

Bu voqeani mamlakatimiz tashqi siyosat va milliy rivojlanish strategiyasining mantiqiy davomi sifatida qabul qilaman. Chunki davlatimiz rahbarining nutqi orqali dunyo yana bir bor angladi: O'zbekiston tinchlik, bag'rikenglik va hamijhatlik g'oyalari ilgari suruvchi davlatdir.

Samarqand faqat tarix emas, bu kelajak bilan bog'liq ramz hamdir. Bu shaharda o'tgan har bir xalqaro tadbir, xususan, UNESCO sessiyasi inson ma'naviyatining eng oliy cho'qqilariga yetishish yo'lidagi yangi qadammni ifodalaydi. Prezidentimiz nutqida ham bu ramziy ma'no alohida o'rin tutdi: **Samarqand insoniyatning tarix solnomasiga gumanistik g'oyalari, nodir bilimlar va sivilizatsiyalararo muloqot markazi sifatida kirgan shahar.**

Bu so'zlar ortida chuqur ma'naviy qarash yotadi. Samarqand Mirzo Ulug'bekning yulduzlar xaritasi yaratilgan, Alisher Navoiyning insonparvar g'oyalari ildiz otgan, Imom Moturidiyning aqidaviy tafakkuri shakllangan zamin. Unda ilm-fan, falsafa va ilohiy tafakkur bir nuqtada uyg'unlashgan. Shu jihatdan "Samarqand ruhi" atamasi insoniyat tarixida yangi ma'naviy formulani taklif etmoqda. Ya'ni madaniyat orqali tinchlik, ilm orqali barqarorlik, ma'rifat orqali rivojlanish.

UNESCO — bu so'z ko'pchilik uchun xalqaro tashkilot nomi, xolos. Ammo men uni insoniyat vijdonining institutlashgan shakli sifatida ko'raman. Mazkur tashkilot dunyodagi madaniyatlarning tengligi, xalqlarning ma'naviy qadr-qimmatini himoya qiladi. U madaniy yodgorliklarni saqlaydi, insonning ma'naviy qiyofasini ham muhofaza etadi.

Ana shu asosiy vazifasi, ya'ni madaniy merosni asrab-avaylash, millatlarning milliy o'zligini saqlash, turli dinlar va sivilizatsiyalar o'rtasida muloqotni kuchaytirish borasidagi faoliyatiga yuqori baho berildi.

Shu bilan birga, dunyo hamjamiyati "gumanitar sohadagi global konsensus"ga chaqirildi. Bu aslida dunyoda kuch yo'li emas, madaniyat, bilim va hamijhatlik yo'li orqali barqaror kelajakni yaratish chaqirig'idir.

So'nggi yillarda mamlakatimiz tashqi siyosatida gumanitar yo'nalish muloqotga yangi bosqichga ko'tarildi. Bir vaqlar faqat siyosiy va iqtisodiy munosabatlar bilan chegaralangan diplomatiya bugun yangi qirra kasb etdi — ma'naviy muloqot diplomatiyasi shakllandi. Bu faqat davlatlararo munosabatlar emas, balki xalqlar qalbida qiyonlikni mustahkamlaydigan siyosiy madaniyatdir.

UNESCO bilan hamkorlik kengayishi, 8 ta kafedra, 24 ta hamkor maktab, "Sharq taronalari", "Maqom san'ati" va boshqa festivallar tashkil etilishi — bularning barchasi insonni ma'naviy jihatdan boyitish orqali davlat nufuzini oshirish yo'lidagi amaliy ishlardir.

Davlatimiz rahbari buni nutqida ochiq ta'kidladi: "O'zbekiston UNESCOning teng huquqli a'zosi sifatida so'nggi yillarda hamkorlikni yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun izchil harakat qilmoqda". Bu izchilik yangi O'zbekistonning xalqaro imiji va diplomatiya falsafasining asosidir.

Shu nuqtayi nazardan, Samarqanddagi 43-sessiya nafaqat tashkilot, balki mamlakatimiz diplomatiyasi tarixida ham yangi sahifa bo'ldi. Unda xalqimiz, madaniyatimiz va ilm-fanimizning nufuzi yozilgan.

Buyuk ajdodlarimiz Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruni, Ali Qushchi, Amir Temur, Kamoliddin Behzod nomlarining UNESCO miqyosida e'tirof etilishi faqat tarixiy xotiragina emas, ma'naviy siyosatning amaliyotdagi ko'rinishi hamdir.

Milliy meros va umuminsoniy qadriyatlar bir-birini to'ldirish g'oyasi bugungi O'zbekiston tashqi siyosiy aqidasida ham o'z aksini topgan. Buni juda muhim jihat hisoblayman. Chunki tarixni saqlash kelajakni qurishning eng ishonchli yo'lidir.

Shu tariqa UNESCOning Samarqanddagi sessiyasi nafaqat siyosiy yoki madaniy voqea, balki insoniyat ongidagi ma'naviy uyg'unish ramzidir. Uning minbaridan yangragan nutq O'zbekistonning xalqaro faoliyatini yangi ma'naviy pog'onaga ko'tardi.

"Samarqand ruhi" iborasi dunyodagi bugungi ziddiyatlar orasida yangicha dunyoqarash — bag'rikenglik, muloqot va ma'rifatga asoslangan insonparvar paradigmani ilgari surmoqda.

Bu "ruh" faqat Samarqandga tegishli emas. U yangi O'zbekistonning butun dunyo bilan hamijhat bo'lish niyati ramzidir. Bu ruhi milliy va xalqaro siyosatdagi yangi strategik yo'nalish sifatida ko'rish kerak: ta'limga inklyuzivlik, madaniyatda hamijhatlik, ilmda ochiqlik, siyosatda tinchlik.

“SAMARQAND RUHI” —

YANGI DUNYO TARTIBINI MA'NAVYI ASOSDA QURISH KONSEPSIYASI

Ilgari surilgan g'oya va tashabbuslar milliy manfaatlar, butun insoniyatning ma'naviy va madaniy birligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi global da'vat sifatida yangradi. Prezident nutqining har bir jumlasida milliy tafakkurning chuqur qatlamlari, umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat va zamonning ilg'or talablariga javob beradigan pragmatik yondashuv mavjud. Unda ta'lim, ilm-fan va ma'rifat sohalaridagi hamkorlik masalasi alohida o'rin tutdi. Bu yo'nalish davlatimizning yangi strategik dunyoqarashini ifoda etuvchi ustuvor yo'nalish sifatida ta'kidlandi.

Darhaqiqat, jahonda yuz berayotgan tezkor texnologik o'zgarishlar, global raqobat kuchayishi va axborot muhitining cheksiz sur'ati har bir mamlakatni inson kapitalini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratishga majbur etmoqda. Shu bois, ta'limga faqat bilim berish tizimi emas, balki millatning intellektual va ma'naviy salohiyatini shakllantiruvchi strategik platforma sifatida ko'rish kerak.

O'zbekiston esa bu yo'nalishda amaliy ishlarni avj oldirmoqda. Ya'ni ta'limging barcha bosqichlarida xalqaro hamkorlik kengaymoqda, yangi avlod dasturlari va global hamkor universitetlar tashkil etilmoqda.

Bu nuqtayi nazardan qaraganda, ta'limgi demokratik jamiyat qurishning asosiy vositasi sifatida ko'rsatilishi, jahon davlatlarini yoshlarga sarmoya kiritishga chaqirish, jahondagi tengsizlik va ijtimoiy bo'linishga qarshi ma'rifiy yo'l bilan kurashish g'oyasi alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bu faqatgina ta'lim sohasidagi islohotlar emas, balki ma'rifat orqali tinchlikni ta'minlash konsepsiyasining yangicha talqini sifatida ham qabul qilindi.

Nutqning ikkinchi ustuvor yo'nalishi madaniy meros va milliy o'zlikni asrash masalasi bo'ldi. UNESCO faoliyatining asosiy yo'nalishi — madaniy xilma-xillikni muhofaza qilish va uni inson sivilizatsiyasining boyligi sifatida qadrlash zarurligi ta'kidlandi.

Samarqand shahrining o'zi mazkur fikrning amaldagi yorqin namunasi. Asrlar davomida turli xalqlar madaniyati, tillari va an'analari qo'shilib, "Samarqand ruhi" deb ataluvchi o'ziga xos bag'rikenglik madaniyatini yaratgan.

Ta'kidlanganidek, madaniy merosni muhofaza qilish faqat tarixiy yodgorliklarni emas, millat xotirasi, insonning ma'naviyatini ham saqlab qolishdir. Bu masalada O'zbekiston avvaldan UNESCO bilan samarali hamkorlik qilib kelmokda. Samarqand, Buxoro, Xiva va

Ta'kidlanganidek, ayollarning ijtimoiy va ilmiy hayotdagi faolligi jamiyat taraqqiyotining ko'zgusi hisoblanadi. UNESCO ham o'z faoliyatida ayollar yetakchiligini qo'llab-quvvatlashni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab kelmokda.

Gender tenglik siyosati misolida davlatimizning jahon standartlariga mos islohotlar yo'lida qat'iyat bilan ilgariylayotgani ta'kidlandi. Ayniqsa, ta'lim, fan, madaniyat va davlat boshqaruvida ayollar uchun yaratilgan imkoniyatlar bu siyosatning amaldagi ifodasi ekani qayd etildi.

Yosh avlodning global muammolarni hal qilishdagi roli haqida ham so'z yuritildi. Yoshlar kelajak, bugunning ham faol ishtirokchilari bo'lishi kerak degan g'oya sessiya ishtirokchilari tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olindi.

Jahon sivilizatsiyalarining o'zaro muloqot masalasiga alohida to'xtalib o'tildi. Ushbu fikr zamirida juda muhim diplomatik g'oya — "madaniyatlar qarama-qarshiligi emas, muloqot orqali dunyo tinchligi ta'minlanadi", degan tamoyil yotadi.

XXI asr insoniyatining eng katta muammolaridan biri — bir-birini tushunish yetishmasligi va ishonch tanqisligi. Shu bois, insoniylikning umumiy tilini tiklash, ya'ni madaniyat, ta'lim va ma'rifat orqali xalqlar o'rtasida yaqinlashuvni kuchaytirish har bir davlat uchun ustuvor vazifa bo'lishi kerak. Bu fikrlar



“ UNESCO — bu so'z ko'pchilik uchun xalqaro tashkilot nomi, xolos. Ammo men uni insoniyat vijdonining institutlashgan shakli sifatida ko'raman. Mazkur tashkilot dunyodagi madaniyatlarning tengligi, xalqlarning ma'naviy qadr-qimmatini himoya qiladi. U madaniy yodgorliklarni saqlaydi, insonning ma'naviy qiyofasini ham muhofaza etadi.

Shahrisabz shaharlarining UNESCOning jahon merosi ro'yxatiga kiritilishi faqat faxr emas, mas'uliyat hamdir.

Shu nuqtada jahon hamjamiyatini madaniy yodgorliklar o'tmish, qolaversa, kelajak avlodlar oldidagi axloqiy burch ekanini anglashga chaqirish juda muhim. Bu fikrlardagi ma'naviy yuksaklik va insoniylik mazmuni ayni nobarqaror voqealar fonda zaruriy da'vatdir.

Nutqdagi juda dolzarb yana bir yo'nalish axborot va raqamli madaniyat davrida insoniy qadriyatlarini asrab qolish masalasi bo'ldi. XXI asr axborot oqimi shiddati, feyklar, manipulyatsiyalar va virtual taassurotlar ortida insonning ichki olamini yo'qotish xavfini ham keltirib chiqardi. Bu holatda faqat iqtisodiy yoki siyosiy choralar bilan cheklanish mumkin emas. Axborot madaniyatini shakllantirish, yoshlarda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va undan ma'naviy foyda chiqara olish qobiliyatini rivojlantirish lozim. Jarayonda "axborot erkinligi mas'uliyatli fikr madaniyati bilan uyg'un bo'lishi shart", degan g'oyaning ahamiyati katta. Bu so'zlar jurnalistika, ta'lim sohasi, global axborot muhitini boshqarishda ham muhim konseptual yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, jamiyatning inklyuziv rivojlanishi, ayniqsa, ayollar va yoshlarning teng ishtirokini ta'minlash masalasiga alohida urg'u berildi. Bu g'oya yurtimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat bilan uzviy bog'liq.

davlatimizning tashqi siyosat yo'nalishi bilan chambarchas bog'liq. U "ishonch va muloqotga asoslangan tashqi siyosat" konsepsiyasini ifoda qiladi.

Nutqda milliy g'oyalari va global tamoyillar o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ldi. Unda ma'muriy manfaatlarning tor ifodasi, na populist shiorlar mavjud. Aksincha, har bir fikr inson va jamiyatning umumiy kelajagiga yo'naltirilgan.

Nufuzli anjumandagi nutqni mazmun-mohiyati jihatdan insoniyatni birlashtiruvchi ma'naviy manfaat sifatida baholash zarur. Unda milliy faxr va global mas'uliyat uyg'unlashgan, tarix va kelajak bir nuqtada tutashgan. Har bir bobda inson, ma'rifati va madaniyat ustuvorligi, ta'lim va ilmiy taraqqiyot orqali tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, axborot va sun'iy intellekt asrida insoniylikni asrash, ayollar va yoshlar huquqlarini va eng muhimi, madaniyatlar muloqotini kengaytirish g'oyalari chuqur ifoda etildi.

Bu g'oyalar Yangi O'zbekiston konsepsiyasining xalqaro miqyosdagi ma'naviy ekvivalenti bo'lib, mamlakatimiz dunyo bilan barobar muloqotga kirishganini, so'z va fikr maydonida ham yetakchilik salohiyatini namoyon etganini ko'rsatadi.

Ilgari surilgan eng muhim tashabbuslardan yana biri inklyuziv ta'limgi rivojlantirish va uning xalqaro mezonlarini yaratish haqidadir. Bu g'oya insonparvarlik siyosatining eng muhim tarkibiy qismi o'laroq, har bir shaxsning bilim olish huquqi kafolatlanishi kerakligi ta'kidlandi.



Prezidentimiz nutqidagi eng zamonaviy va dolzarb yo'nalishlardan biri, shubhasiz, sun'iy intellekt masalasi bo'ldi. Bu mavzudagi fikrlar jahon siyosat va fan elitasi orasida katta qiziqish uyg'otdi, chunki bu soha faqat texnologiya yoki iqtisodiy resurs emas, balki insoniylik tamoyillari bilan chegaralangan ma'naviy masala sifatida talqin etildi.

U "texnologiya insonga xizmat qilishi kerak, inson texnologiyaga emas", degan fikrni ilgari surdi. Bu g'oya aslida UNESCOning 2021-yilda qabul qilgan "Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiyalar" hujjatining mazmun-mohiyatiga mos keladi. Davlatimiz rahbarining pozitsiyasi shundan iboratki, avvalgi insoniy intellekt rivoji axloqiy chegaralarsiz kechsa, inson qadr-qimmatini soya ostida qoldirishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, bu masalada ikki muhim yo'nalishga e'tibor qaratildi. Birinchisi, sun'iy intellektni boshqarish va rivojlantirish jarayonida davlatlar va xalqlar tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ikkinchisi, sun'iy intellekt ta'lim va ilmiy faoliyat orqali axloqiy me'yorlar bilan bog'lab borilishi zarurligidir.

Bu taklifning global ahamiyati shundaki, u sun'iy intellektning faqat iqtisodiy salohiyatiga emas, balki uning axloqiy va ma'naviy ta'siriga ham e'tibor qaratishga chorlaydi.

Navbatdagi muhim taklif nomoddiy madaniy merosni asrash va uning global himoya tizimini mustahkamlash haqida bo'ldi. Ta'kidlandiki, moddiy yodgorliklar qanday ahamiyatli bo'lsa, xalqning urf-odatlar, tillari, milliy musiqasi va folklori, an'analari ham shunchalik qadrlidir. Ular xalqning ruhiy kodini saqlaydigan, madaniy barqarorlikni ta'minlaydigan manba hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, nomoddiy merosni asrash masalasi faqat madaniy emas, balki geosiyosiy va ma'naviy ahamiyatga ega. Chunki madaniy merosni yo'qotish millatning xotirasini yo'qotish bilan barobar.

Nomoddiy merosni saqlash borasida yurtimiz bugungi kunda ilg'or tajribaga ega. Shashmaqom, Buxon madaniy an'analari, katta ashula, askiya, palov bilan bog'liq madaniyat va an'analar,

Navro'z bayramini nishonlash an'analari, atlas va adras tayyorlashning an'anaviy texnologiyalarini saqlash, Marg'ilon hunarmandlikni rivojlantirish markazi, lazgi, miniatyura san'ati, baxshichilik, an'anaviy ipak tayyorlash san'ati, Xo'ja Nasriddin haqidagi an'anaviy hikoyalar, kulollik hamda naqqoshlik san'ati, iftorlik va uning ijtimoiy-madaniy an'analari, shuningdek, rubob yasash va ijro etish san'ati UNESCOning nomoddiy meros ro'yxatiga kiritilgan.

Yana bir muhim tashabbus, gender tenglikni ta'minlash va ayollarning global yetakchiligini qo'llab-quvvatlash masalasi bo'ldi. Bu g'oya faqat ijtimoiy emas, balki ma'naviy mezon sifatida talqin etildi.

Ayollarning ta'lim, fan, madaniyat va boshqaruv sohalaridagi faolligi jamiyat taraqqiyotining ko'zgusidir. Ularning salohiyatini ochish millatning ma'naviy salohiyatini oshirish demakdir.

Mazkur masalada O'zbekiston so'nggi yillarda jiddiy qadamlar tashladi. Ayollar uchun yangi ta'lim va kasbiy tayyorgarlik dasturlari joriy etilishi, davlat boshqaruv tizimida ayollar ulushi o'sib borayotgani, Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi faoliyati kengaygani fikrimizni tasdiqlaydi. Bu ishlarni nafaqat ichki siyosat natijasi, balki global miqyosdagi mas'uliyat ifodasi hamdir.

Bu g'oya — yangi O'zbekiston diplomatiyasining asosiy tamoyillaridan biri, mamlakat tashqi siyosatini iqtisodiy manfaatlar bilan cheklab qo'yamaydi, balki uni madaniy va ma'naviy hamijhatlik mezonlari bilan boyitadi.

Samarqand sessiyasidan chiqariladigan eng muhim xulosa shuki, bu tadbir dunyodagi murakkab qarama-qarshiliklar fonda ishonchni qayta tiklash jarayonining boshlanishi bo'ldi.

Muloqot ziddiyatlarga emas, yechimlarga yetaklaydi. Samarqand minbaridan yangragan har bir so'z millatlarni emas, insonlarni birlashtirishga da'vat etdi. Bu yerda turli dunyoqarashlar, madaniyatlar va an'analar bitta maqsad — tinchlik va taraqqiyot uchun birlashdi.

Ishonch — xalqlaro munosabatlardagi eng katta kapital. Davlatlar o'rtasida ishonch bo'lmasa, hech qanday shartnoma yoki bitim barqaror bo'la olmaydi. "Samarqand ruhi" ishonchni qayta tiklash, muloqot madaniyatini yanada chuqurlashtirish g'oyasini ilgari surdi.

Hamijhatlik — insoniyatning yagona yo'li. Bu hamijhatlik nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy, ma'naviy birdamlikni anglatadi. Insoniyat taqdiri faqat hamijhatlikda hal bo'ldi.

Bu prinsiplar yangi geosiyosiy formatdagi gumanizmning o'zak nuqtasiga aylanmoqda. "Samarqand ruhi" diplomatik ibora emas, balki yangi dunyo tartibini ma'naviy asosda qurish konsepsiyasidir.

UNESCO sessiyasi mamlakatimizning tashqi siyosiy imijiga muloqotga yangi mazmun kiritdi. Agar avval yurtimiz ko'pincha mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy hamkorlik tashabbuskori sifatida ko'rilgan bo'lsa, endi u gumanitar siyosatning ilhom manbari sifatida namoyon bo'ldi.

Mazkur o'zgarish strategik diplomatiya qaror emas, balki madaniyat va ma'naviyatni davlat siyosatining markaziga qo'yish orqali jahon hamjamiyatida yangi nufuz qozonish usulidir. Bu siyosatning mohiyati shundaki, O'zbekiston global diplomatiyada "kuch siyosati"ni emas, "ma'naviy siyosati"ni ilgari surmoqda.

Jarayonni "madaniy geosiyosat", deb atash mumkin. Unga ko'ra, mamlakatning xalqaro ta'siri harbiy yoki iqtisodiy kuch bilan emas, balki madaniy diplomatiya, ta'lim, ilm-fan va ma'naviy qadriyatlar orqali belgilanadi. Samarqand sessiyasi aynan shu yo'nalishdagi burilish nuqtasi bo'ldi.

Sessiyadagi har bir tashabbus "O'zbekiston — 2030" strategiyasi bilan mazmunan bog'langan. Shu ma'noda, Samarqand minbarida yangragan g'oyalar global hamjamiyat uchun universal ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularning amaliyotdagi ildizi O'zbekistonning islohot tajribasiga borib taqaladi.

Samarqand sessiyasini xalqaro forum, yangi fikr maktabi deb bilaman. Unda ilgari surilgan g'oyalar insonparvarlik, ta'lim, fan, madaniyat va axloqning umumiy tizimini qayta ko'rib chiqish zaruratini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, bu sessiya davlat siyosatining ma'naviy chuqurligini yanada ochdi. Agar biz XXI asrda raqobatga bardoshli jamiyat qurmoqchi bo'lsak, u holda faqat iqtisod yoki texnologiya emas, qadriyatlar raqobatida ham yutishimizga to'g'ri keladi.

katta ishlarni bajardi. Ayniqsa, Buyuk ipak yo'li shaharlari tashabbusi doirasida madaniy merosni innovatsion texnologiyalar bilan muhofaza qilish (masalan, 3D skanerlash, virtual muzeylar) yo'nalishida ilg'or tajribalar joriy etildi.

Madaniy merosni qadrlagan millat o'z kelajagini yo'qotmaydi. Shu bilan birga, o'z madaniyatini asragan xalq insoniyatning umumiy ma'naviy xazinasini boyitadi.

XXI asrdagi global xavflardan biri axborot manipulyatsiyasi va yolg'on ma'lumotlar oqimidir. Aqlli texnologiyalar davrida inson ongini himoya qilish, haqiqatni asl qiyofasida saqlab qolish har bir mamlakatning ustuvor vazifasi bo'lishi kerak. UNESCO kabi tuzilmalar uchun esa bu fikr juda dolzarb, chunki axborot sohasidagi dezinformatsiya madaniyatlar va xalqlar o'rtasida ishonchni yo'qotish xavfini keltirib chiqaradi.

Mamlakatimiz azaldan turli dinlar, turli millatlar tinch va totuv yashagan maskan bo'lgan. Biz bu an'anani zamonaviy dunyodagi bag'rikenglik madaniyatining namunasi sifatida rivojlantirishni istaymiz.

Bu g'oya O'zbekiston tashqi siyosatining ma'naviy ustuni hisoblanadi. Samarqand sessiyasida bu masala yanada katta ma'naviy kontekstda ko'rildi.

Samarqand nafaqat UNESCO sessiyasi o'tkazilgan joy, balki butun insoniyat xotirasida sivilizatsiyalar chorrahasida turgan shahar sifatida ramziy qiyमतga ega. Bu shaharda UNESCO Bosh konferensiyasi sessiyasi o'tkazilishi tarixiy voqea bo'ldi. U madaniyat va ilm-fan sohasida dunyo miqyosidagi muloqotni, XXI asr global siyosatining ma'naviy mohiyatini belgilab bergan voqealardir.

Prezidentimizning yuksak minbardagi nutqi bugungi insoniyat oldida turgan dolzarb muammolarga javob berish bilan birga yangi gumanizm falsafasiga asoslangan davlatchilik yo'lini namoyon qildi. Zero, har bir millatning kelajagi uning ma'naviyati, ilm-fani va madaniyatiga munosabatidan boshlanadi. Shuning uchun biz ilm va ma'rifatni global taraqqiyotning asosiy ustuni sifatida ko'ramiz.

Bu g'oya — yangi O'zbekiston diplomatiyasining asosiy tamoyillaridan biri, mamlakat tashqi siyosatini iqtisodiy manfaatlar bilan cheklab qo'yamaydi, balki uni madaniy va ma'naviy hamijhatlik mezonlari bilan boyitadi.

Samarqand sessiyasidan chiqariladigan eng muhim xulosa shuki, bu tadbir dunyodagi murakkab qarama-qarshiliklar fonda ishonchni qayta tiklash jarayonining boshlanishi bo'ldi.

Muloqot ziddiyatlarga emas, yechimlarga yetaklaydi. Samarqand minbaridan yangragan har bir so'z millatlarni emas, insonlarni birlashtirishga da'vat etdi. Bu yerda turli dunyoqarashlar, madaniyatlar va an'analar bitta maqsad — tinchlik va taraqqiyot uchun birlashdi.

Ishonch — xalqlaro munosabatlardagi eng katta kapital. Davlatlar o'rtasida ishonch bo'lmasa, hech qanday shartnoma yoki bitim barqaror bo'la olmaydi. "Samarqand ruhi" ishonchni qayta tiklash, muloqot madaniyatini yanada chuqurlashtirish g'oyasini ilgari surdi.

Hamijhatlik — insoniyatning yagona yo'li. Bu hamijhatlik nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy, ma'naviy birdamlikni anglatadi. Insoniyat taqdiri faqat hamijhatlikda hal bo'ldi.

Bu prinsiplar yangi geosiyosiy formatdagi gumanizmning o'zak nuqtasiga aylanmoqda. "Samarqand ruhi" diplomatik ibora emas, balki yangi dunyo tartibini ma'naviy asosda qurish konsepsiyasidir.

UNESCO sessiyasi mamlakatimizning tashqi siyosiy imijiga muloqotga yangi mazmun kiritdi. Agar avval yurtimiz ko'pincha mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy hamkorlik tashabbuskori sifatida ko'rilgan bo'lsa, endi u gumanitar siyosatning ilhom manbari sifatida namoyon bo'ldi.

Mazkur o'zgarish strategik diplomatiya qaror emas, balki madaniyat va ma'naviyatni davlat siyosatining markaziga qo'yish orqali jahon hamjamiyatida yangi nufuz qozonish usulidir. Bu siyosatning mohiyati shundaki, O'zbekiston global diplomatiyada "kuch siyosati"ni emas, "ma'naviy siyosati"ni ilgari surmoqda.

Jarayonni "madaniy geosiyosat", deb atash mumkin. Unga ko'ra, mamlakatning xalqaro ta'siri harbiy yoki iqtisodiy kuch bilan emas, balki madaniy diplomatiya, ta'lim, ilm-fan va ma'naviy qadriyatlar orqali belgilanadi. Samarqand sessiyasi aynan shu yo'nalishdagi burilish nuqtasi bo'ldi.

Sessiyadagi har bir tashabbus "O'zbekiston — 2030" strategiyasi bilan mazmunan bog'langan. Shu ma'noda, Samarqand minbarida yangragan g'oyalar global hamjamiyat uchun universal ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularning amaliyotdagi ildizi O'zbekistonning islohot tajribasiga borib taqaladi.

Samarqand sessiyasini xalqaro forum, yangi fikr maktabi deb bilaman. Unda ilgari surilgan g'oyalar insonparvarlik, ta'lim, fan, madaniyat va axloqning umumiy tizimini qayta ko'rib chiqish zaruratini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, bu sessiya davlat siyosatining ma'naviy chuqurligini yanada ochdi. Agar biz XXI asrda raqobatga bardoshli jamiyat qurmoqchi bo'lsak, u holda faqat iqtisod yoki texnologiya emas, qadriyatlar raqobatida ham yutishimizga to'g'ri keladi.



ILM, IZLANISH VA MEHNAT UYG‘UNLIGI

QORAQALPOG‘ISTONLIK FERMERLAR XIRMONIGA BARAKA KELTIRDI

Joriy yil Qoraqalpog‘istonda 2325 ta fermer xo‘jaligining 80 ming gektar maydoniga chigit ekilgan edi. Shundan 1332 ta subyektda jami 24 ming 620 gektarga xorij agrotexnologiyasi asosida yangi navdagi paxta ekildi. Qilingan mehnat samarasida 315 ming 345 tonna paxta terib olindi. Bunda, ayniqsa, Amudaryo, Beruniy, Ellikqal‘a, Taxiotosh tumanlari fermerlari jonbozlik ko‘rsatdi. Ular birinchilardan bo‘lib paxta topshirish rejasini bajardi.

Bu yilgi paxta hosilini tez va sifatli terib olishga 127 mingdan ortiq terimchi jalb qilindi. Ularning 92 mingdan ortig‘i ko‘ngilli terimchilar edi. Bundan tashqari, hosil yig‘ishga 60 dan ortiq terim mashinasi, 3194 ta tashuv tirkamasi jalb qilingan.

— Bu yil 50 gektarga mahalliy, 13 gektarga xorijdan olib kelingan yangi navdan ekkdik. Dala chetlariga sabzavot, poliz va makkajo‘xori ekildi, — deydi Amudaryo tumanidagi “Choyko‘l do‘stlik” fermer xo‘jaligi rahbari Faxriddin Rahimov. — Natijada paxtaning mahalliy navidan 47 sentnerdan, xorijiy navdan 60 sentnerdan hosil oldik. Dala chetlaridagi ekinlar ham foyda keltirdi. Nasib etsa, paxtaning o‘zidan 1,3 milliard so‘m daromad olishni ko‘zlayapmiz.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligidagi mavjud resurs va imkoniyatlardan unumli foydalanishga harakat qilinayotir. Xususan, kam suv talab qilib, ko‘proq hosil beradigan navlar tanlanib, agrotexnik tadbirlar ilmiy yondashuv asosida o‘tkazilyapti.

— Fermer xo‘jaligimizning 50 gektar maydoniga mahalliy va yana shuncha joyga xorijning yangi nav chigitini qadagan edik. G‘o‘za maydonlariga 700 kilogrammdan azotli, 100 kilogrammdan kaliyli, 350 kilogrammdan fosforli o‘g‘itlar berildi, — deydi Beruniy tumanidagi “Durdiboyev Tajimurat” fermer xo‘jaligi rahbari Ilhom Durdiboyev. — Paxtani



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

zararkunandalardan asrash uchun maxsus biomahsulotlardan foydalanib, dala chetlariga o‘z vaqtida ishlov berdik. Natijada mahalliy navdan 47 sentnerdan, xorijiy navdan 56 sentnerdan hosil oldik.

Qoraqalpog‘iston fermerlar kengashi tegishli tashkilotlar bilan birgalikda terimchilar uchun imkon qadar qulay sharoit yaratishga harakat qildi. Avvalo, ularga issiq ovqat, terim pullari o‘z vaqtida berilishi nazorat qilib borildi. Ularning kayfiyatini ko‘tarish uchun “Paxta sayillari”, “Mehnatim — qadrim”, “Oila budgetiga mening hissam” kabi tadbirlar tashkil etildi.

Hozir Qoraqalpog‘istonda jami 511 ayol fermer xo‘jaligini boshqarmoqda. Shundan 300 nafari dehqonchilik, 58 nafari chorvachilik va baliqchilik,



150 nafardan ortig‘i bog‘dorchilik va asalarichilik bilan shug‘ullanadi.

Kegeyli tumanidagi “Arziyo” fermer xo‘jaligi rahbari Palzoda Soliyeva fidokorona mehnatlari uchun joriy yilda “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlandi. Palzoda opa o‘z fermer xo‘jaligiga 2007-yilda asos solgan. Joriy yilda g‘allaning gektaridan 81 sentner, sabzavot ekinlaridan 350 sentnerdan hosil oldi. Fermer opa 42 qishloqdoshini ish bilan ta‘minlagan.

Qoraqalpog‘istonlik fermerlar suv tejash texnologiyasidan ham samarali foydalanmoqda. Xususan, bu yil 4150 gektar maydonda tomchilatib, 1900 gektarda yomg‘irlatib, 700 gektarda diskret, 9900 gektarda egiluvchan quvvur va plyonka to‘shab sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish belgilangan. 30 ming 500 gektarda lazerli yer tekislash ishlari bajariladi.

— Hozir 3477 gektar yer tomchilatib sug‘orilmoqda. 2503 gektarda yomg‘irlatib, 503 gektarda diskret va 9963 gektarda egiluvchan quvvur va plyonka to‘shab sug‘orish texnologiyasi joriy qilingan, — deydi Qoraqalpog‘iston fermerlari kengashi raisi Ilhom Yunusov. — 18 ming 798 gektar yerga lazerli tekislagich bilan ishlov berildi. Bundan tashqari, tumanlardagi klaster va fermer xo‘jaliklari hisobidagi 1450 kilometr ichki sug‘orish tarmog‘ini betonlash reja qilingan. Hozirgacha reja 97 foiz bajarildi.

Joriy yil 1-oktabrdan 2026-yilning 1-mayiga qadar yana 2300 kilometr ichki sug‘orish tarmog‘i beton qilinadi. Reja-jadvalga ko‘ra, bu ish klaster va fermer xo‘jaliklari hisobidan amalga oshiriladi.

Shu yil 17-yanvarda Prezidentimizning “2025-yilda aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingandi. Uning ijrosini ta‘minlash uchun joriy yil Qoraqalpog‘istonda 34 ming 390 fuqaroning bandligini ta‘minlash ko‘zda tutilgandi. Hozirgacha ularning 23 ming 255 nafari ishli bo‘ldi. Bunda ham fermerlarning munosib hissasi bor.

Dehqon va fermerlarning timsiz mehnati, agromolarning bilim va tajribasini uyg‘unlashtirish evaziga yuksak natijalarga erishilmoqda. Bunday yutuqlar esa yurtimiz iqtisodiy taraqqiyotiga, aholi farovonligini oshirishga, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O

Oramizdagi odamlar

Chiqindi deganda, ko‘z oldimizda yoqimsiz manzara gavdalanib, ko‘nglimiz xira tortadi. Biz chiqindiga faqat muammo, qutulish zarur bo‘lgan yuk sifatida qarashga o‘rganib qolganmiz. Ammo shu “muammo”ning orqasidan yaxshigina daromad topish ham mumkin.

EKOLOGIYAGA HAM, IQTISODIYOTGA HAM FOYDA

Shunday insonlar borki, bir qarashda befoyda tuyulgan joydan imkoniyat yaratadi. Shu orqali nafaqat o‘z hayoti, balki jamiyatni ham o‘zgartiradi. Ana shundaylardan biri kattaqo‘rg‘onlik Gulmira Jumayevadir.

Qahramonimiz chiqindini faqat zarar deb biladiganlar orasida yangi bir dunyo yaratga olgan inson. U boshqalar keraksiz deb bilgan narsalarga aql-zehn va mehnat bilan yondashdi. Shu orqali undan foyda olish mumkinligini amalda isbotladi.

— Bu sohada faoliyat boshlash men uchun oson kechmagan, — deydi Gulmira Jumayeva. — Vaqtida ko‘pchilik “Chiqindi yig‘ib boy bo‘lmoqchimisan?” deb kuldi. Shunda ularga “Men chiqindi emas, pul yig‘aman!”deb javob berganman. Rostdan ham chiqindi — pul. Faqat uni yig‘ib olish kerak. Hammasi bitta kino sabab boshlangandi. Unda gonkonglik millioner chiqindi zavodi orqali qanday boyoginani ko‘rib, qiziqib qoldim. Keyin xorijga borib, aynan shu sohada faoliyat boshladim. Avvaliga oddiy farroshlikka ishga kirdim. Bir necha yil chiqindini qayta ishlash zavodida turli vazifalarda ishlab, tajriba to‘pladim. Xorijdan qaytgach, chiqindidan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga qaror qildim. Albatta, boshida qiyinchiliklar bo‘ldi. Joy muammosi, texnika yetishmasligi... Lekin harakatdan to‘xtamadim. Hatto eshak aravalarda ham ishlagan kunlarimiz bo‘ldi. Biroq bu qiyinchiliklar meni to‘xtatmadi, aksincha, yanada qattiqroq harakat qilishga undadi.

Qahramonimiz shijoat va qat‘iyat bilan 2015-yildan faoliyat boshlaydi. So‘nggi yillarda yurtimizda tadbirkorlarga yaratilgan imkoniyatdan samarali foydalanib, 2018-yilda “Anvarjon biznes invest” MCHJni tashkil etadi. Shu yo‘linda biznes faoliyatini rasman yo‘lga qo‘yadi. Ilk qadamlardan o‘q u har bir ishga mas‘uliyat bilan yondashdi. To‘plangan tajriba va harakatlari natijasida Gulmira Jumayeva yanada yirik loyihalarga kirishdi.

Farroshlikdan rahbarlikkacha

Keyingi yillardagi o‘zgarishlar sabab “Toza hudud” MCHJning Kattaqo‘rg‘on tumani bo‘limi davlat-xususiy sheriklik asosida ishlaydigan bo‘ldi. Shu orqali chiqindini qayta ishlash uchun tizimli va innovatsion mexanizm joriy etildi. Oddiy farroshlikdan rahbarlikkacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tgan tadbirkor Gulmira Jumayeva kuniga tomlalab chiqindini qayta ishlash, qimmatli xomashyoga aylantirmoqda. Uning tashabbusi ekologiyaga ham, iqtisodiyotimizga ham foyda keltirmoqda. Hozir u rahbarlik qilayotgan korxonada 426 ishchi mehnat qiladi.

— Kattaqo‘rg‘on tumani, shahri, Narpat va Paxtachi tumanlaridagi 207 ta mahallaga xizmat ko‘rsatayapmiz, — deydi qahramonimiz. — Asosan, plastik qop, shisha, metall, plastmassa kabi 13 turdan ortiq xomashyo materiallarni qayta ishlaymiz. Korxonamiz bir paytlar o‘zim kinoda ko‘rib orzu qilganimgdek, yirik klasterga aylandi.

Korxona ishchilari bir kunda 280 tonna atrofida chiqindi yig‘adi. Bu bir yilda 100 ming tonna chiqindi degani.

— Biz ko‘chada yotgan har qanday chiqindini yig‘ib olib, obdan yuvib-tozalab, yuqori haroratda qayta ishlash, yarim tayyor mahsulotga aylantiramiz. Ularga yirik kompaniyalar xaridor bo‘lmoqda. Masalan, kuniga 10-15 tonna baklajkani presslab, Urgutdagi gilam zavodiga jo‘natamiz, — deydi Gulmira opa. — Ba‘zilar chiqindidan tayyorlanayotgan mahsulotga shubha bilan qaraydi. Lekin xavotirga o‘rin yo‘q. Chunki zavodlarimizda chiqindi xomashyosiga 400 daraja issiqlikda maxsus kimyoviy ishlov beriladi. Keyinchalik bu xomashyoni qayta ishlash, tayyor mahsulot tayyorlovchi korxonalar unga yana 280 darajali termik ishlov beradi. Bunday yuqori haroratda zararli mikroba va bakteriyalar qolmaydi. Mahsulotimiz sanitariya va gigiyena talablariga to‘liq javob beradi.

“Chiqindixona malikasi” deyishsa, xafa bo‘lmayman”

Gulmira Jumayevaning ibratli faoliyati nafaqat O‘zbekistonda, balki qo‘shni respublikalarda ham e‘tirof etilmoqda. Shu yil yozda Bishkek shahrida “Ayol — lider, dunyoni yaxshilik sari o‘zgartiruvchi kuch” shiori ostidagi xalqaro forum bo‘lib o‘tdi. Unda Qirg‘iziston va O‘zbekistondan 200 nafarga yaqin ayol rahbar ishtirok etdi. Nufuzli anjumanda Gulmira Jumayeva ham e‘tibor qozondi.

— “Chiqindixona malikasi” deyishsa, xafa bo‘lmayman. Aksincha, kichik faoliyatim shuncha e‘tiborga sazovor bo‘layotganidan mamnunman. Biroq tan olamanki, hali katta ishlarni amalga oshirganim yo‘q. Oldinda rejalar ko‘p, — deydi qahramonimiz. — Bugun ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar doirasida yana mingta ish o‘rni yaratishni, shu orqali ayollarni barqaror ish bilan ta‘minlash, jamiyatdagi o‘rni va mavqeini mustahkamlashni maqsad qilganman. Xotin-qizlarning ishli bo‘lishi nafaqat ularning iqtisodiy barqarorligini, balki jittimoiy faolligi va o‘ziga ishonchini ham mustahkamlaydi.

Darhaqiqat, inson mehnati va sabr-toqati orqali hatto chiqindidan ham “oltin” yaratiladi. Buni qahramonimiz hayot yo‘li misolida isbotladi. O‘ziga ishonch va yaratilgan imkoniyatlar qahramonimizga katta muvaffaqiyat olib keldi. Ha, taraqqiyot har qanday vaziyatda imkoniyat topib, mehnatni sharafl deb bilgan insonlar orqali yuzaga chiqadi.

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist

MILLIARD SO‘M DAROMAD

ISHONMASANGIZ, TO‘RAQUL NUSRATOV XONADONIGA KELING!

— Mahalla raisini topib bering! Qachon kelsam, xonasida bo‘lmaydi. Ishlaydimi-yo‘qmi?! — dedi baland ovozda arizachi. U jahli chiqqanini ko‘rsatib qo‘yish uchun xonada o‘tirgan yigitga burgutqarash qildi. Uni bu yerda deyarli barcha taniydi. Doim shikoyat bilan kelgani bois, “arizachi” deb nom olgan.

— Hozir keladi. Bir oz sabr qiling. Zarur ish bo‘yicha chaqirilgandi, — deydi yoshlar yetakchisi arizachini hovuridan tushirishga urinib.

— Yolg‘on gapirmang-e! Atay kelmanam. Birinchi bo‘lib raisni ishdan olish kerak. Keyin sizlarni. Biror marta holing nima deb so‘ragani yo‘q. Faqat boshqalarga yordam berishni biladi...

Shu payt mahalla idorasi oldiga mashina kelib to‘xtadi. Janjalkashni ko‘rib, raisning kayfiyati tushdi. Arizachi esa salomni ham nasiya qilib, baqira ketdi:

— Soat necha bo‘ldi?! Yarim soatdan beri kutib o‘tiribman. Ustingizdan qar qilaman. Qani yordam puli? Nega anovi ustaning bevasiga berasiz? Menga kelganda to‘qon yutasiz...

Mahalla raisi uning gapini ko‘p eshitganidanni, beparvo alik olib, ichkariga kiradi. Bundan arizachining yuzi battar qizarib, raisga ergashdi.

— Menga yordam puli ajratilishi kerak edi. Nega berilmadi? Sharoitim og‘ir, bir borib so‘raydigan kishi yo‘q. Doim o‘zim kelishim kerak. Kelsam, sizni topib bo‘lmaydi...

Murojaatchini ancha vaqtgacha jim eshitgan rais shoshilmay, vaziyatni tushuntirgan bo‘ldi. Mulohaza yuritib, yaxshi gaplar bilan chiqarib yubordi. Aslida, bu arizachi bir necha bor yordam puli olgan. Unga imtiyozli kredit ham ajratilgan. U faqat pulni sovrishni bilardi. Biror ishning boshini tutishni xayoliga ham keltirmaydi. Ikki ta yengil mashinasi bor. Kattagina hovlisini yantoq bosgan. Tog‘ni ursa to‘qon qilgudek kuchi bor, lekin topgan gapi mahalladan moddiy yordam so‘rash va noli. Boqimandalikni kasb qilgan. To‘g‘ri maslahat berilsa, bahonasi tayyor: “Qishloqda dehqonchilik qilib bo‘lmaydi. Suvning sho‘ridan yer “qisir” bo‘lib qolgan”.

Shu qishloqning ba‘zi odamlari hovlisidan million so‘mliq daromad topayotgani aytisangiz, tag‘in lab buradi.

Jo‘jani kuzda sanaganlar adashdi

To‘raqul otaning yoshi 76 da. Suyagi dalada qotgan. Tajribali dehqon. Uning xonadonini ko‘zdan kechirgan kishi “Bo‘lar ekan-kul” deb yuborishi tayin. Qilinyotgan ishlar, olinayotgan daromad odamni hayratga soladi. Hovlidan chiqmay turib, har yili milliard so‘mdan ortiq pul topadi. Daromadning salmog‘ida zaracha mublag‘a yo‘q.

Otaxon bolaligini, azobli yillarini ko‘p eslaydi. O‘smirligidayoq otasidan ayrilgan. Hali hayot tashvishlarini anglamay, ro‘zg‘or yukini yelkasiga oldi. Qorin nonga to‘ymagan kezlarda oilaning o‘n bir a‘zosini boqishning o‘zi bo‘lmasdi. Boshqa iloj ham yo‘q. Taqdir bitigidan qochib bo‘lmaydi. Bor bisoti bo‘lgan ko‘kizini omochga qo‘shib, odamlarning yerini shudgor qiladi. Evaziga kimdir qora non, yana boshqasi turshakni, mayizmi beradi. Shunisiga ham shukr qilib uyga qaytadi. Qo‘shimchasiga ukalariga bosh bo‘lib, hovlida dehqonchilik qiladi. Turli sabzavot ekib, bozorga chiqaradi. Ana shu mashg‘ullik yillar uni tajribali dehqon qilib tarbiyaladi.

Keyinchalik oila qurib, Mirishkor

tumanining yangi o‘zlashtiriladigan hududiga ko‘chib o‘tdi. Ammo cho‘lda biror nihol ko‘kartiirish oson emasdi. Izlagan imkon topar deganlaridek, sharoiti yaratishga bel bog‘ladi. Dastlab quduq qazib, suv chiqardi. Hovlisida dehqonchilik qila boshladi. Ko‘pchilik cho‘lining sho‘r suvida giyoh umnasligini aytib, uni shashtidan qaytarmochi bo‘ldi. To‘raqul ota bu gaplarga e‘tibor bermadi. Tajribasiga tayanib ish tutdi. Avvalo, ko‘chaga, hovlisiga daraxt ekdi. Bir yilda atrofini go‘zal qiyovfaga keltirdi. Ikkinchi yili tomorqadan foydalana boshladi. Dastlab yemi yaxshilab ag‘darib, mahalliy o‘g‘it aralashtrib chiqdi. Keyin ro‘zg‘orga eng ko‘p ishlatiladigan sabzavotlar urug‘ini sepib, sug‘ordi. Qisqa muddatda tomorqa yam-yashil maydonga aylandi. Qo‘ni-qo‘shnilar uning uslubini o‘zlashtirmochi bo‘lib harakat qilar, ammo biror kishi eplay olmasdi. Ba‘zi dangasalar esa: “Jo‘jani kuzda sanaymiz”, deya hosil olishga unchalik ishonmadi.

Bobo o‘sha yilning o‘zida yaxshigina xirmon ko‘tardi. Qishloq odamlariga hovlisida yetishtirilgan kartoshka, sabzi, sholg‘om kabi mahsulotlarni sotdi. Endi kimga biror mahsulot kerak bo‘lsa, to‘g‘ri To‘raqul akanikiga keladigan bo‘ldi. Boisi, bozor olisda. Hozirgidek do‘konlar yo‘q edi. Daromad

esa dehqonga yanada kuch beradi. Ko‘proq mehnat qiladigan bo‘ldi. Farzandlarini yoniga olib, to‘rt sotiqqa kartoshka, yana shuncha joyga sabzi, sholg‘om, turp ekdi. Natija kutilganidan ham yaxshi bo‘ldi. Endi nafaqat qishloq aholisi, balki boshqa hududlardan ham xaridor kelib, mahsulotini ulgurji sotib ola boshladi.

— Har yili tomorqaning o‘zidan o‘rtacha 300 million so‘m daromad topamiz, — deydi To‘raqul ota Nusratov. — Ayni paytda sarimsoqpiyoz, kechki kartoshka ekkannmiz. Yaqinda makkajo‘xorini yig‘ishtirdik. Taxminan 10 tonnaga yaqin hosil oldik. Bahorda sarimsoqpiyozni kovlab olamiz. Kamida 4-5 tonna chiqib qoladi. Kartoshka ham besh tonnadan ko‘p hosil beradi. Bundan tashqari, anor, anjirimiz bor. Bu ham qo‘shimcha daromad. Xullas, bir qarich yemi ham bo‘sh qoldirmaymiz. Bu joyga ko‘chib kelganimizda atrofda bir dona daraxt yo‘q edi. Ko‘pchilik hali yerga cho‘p qadamay, bu yerda biror nihol o‘smaydi dedi. Men birinchi yilning o‘zida ishga kirishdim. Yerga ishlov berib, dastlab issiqqa chidamli daraxtlar ekkim. Natija yomon bo‘lmadi. O‘sha yilning o‘zida bo‘y ko‘rsatdi. Bugun barchasi mo‘l hosil beradi.

Ibrat va tajriba maktabi

Tajribali dehqon birligina tomorqadan daromad topish bilan cheklanib qolgan yo‘q. Hovlida chorvachilikni ham yo‘lga qo‘ygan. Ayni paytda yigirmata nasli qoramol boqmoqda. Shundan yettitasi sut beradi. Otaning aytishicha, kuniga uch yuz litrga yaqin sut sog‘ib olinadi. Ro‘zg‘ordan ortgani sotiladi. Bu 220-230 ming so‘m degani. Bundan tashqari, hovliga to‘rtta novvos bo‘lg‘an. Uch-to‘rt oy boqilgach, yaxshigina pulga sotiladi. Qulay jihati qoramollarning ozuqasi hovlidan chiqadi.

— Mol boqishning ham o‘z qoidasi bor, — deydi To‘raqul ota. — Bunga faqat yem-xashak berish bilan kifoyalansangiz, harakatingiz befoyda ketadi. Avvalo, o‘z vaqtida suv berish kerak. Bundan tashqari, bir xil xashak berib bo‘lmaydi. E‘tibor qilgan bo‘lsangiz, hovli chetiga beda ekilgan. Baqti-vaqti bilan shundan o‘rib beramiz. Yana quruq xashak, yem beriladi. Chorvadan bir yilda o‘rtacha 600 million so‘mga yaqin daromad topamiz. Birovdan kam joyimiz yo‘q. Farzandlarimga uy-joy qilib berdim. Hozir uch o‘g‘lim ham o‘zining xonadonida mendan o‘rgangani asosida ishlayapti. Noligan kishilarni ko‘rsam, chidab turolmayman. Axir shuncha imkoniyat bor. Harakat qilgan kam bo‘layotgani yo‘q. Faqat dangasalikdan voz kechilsa bo‘lgani. Ishyovmaslik insonga kulfat keltiradi. Ishonsangiz, hovlimning ko‘cha qismiga qo‘ni-qo‘shnilar, yo‘ldan o‘tuvchilar uchun alohida qaysidir sabzavotni ekib qo‘yaman. Hozir ham bulg‘or qalampir mo‘l hosil tugib turibdi. Kimdir bemalol keragicha terib ketaveradi. Buni qo‘shnilarga hosildan yordam berish uchun emas, aksincha, hovlida biror mahsulot yetishtirib bo‘lmasligini bahona qilib yurganlarga namuna bo‘lsin degan niyatda ekanman. Agar biror oila boshlig‘i tomorqasiga

ekin ekmay, bahona qiladigan bo‘lsa, turmush o‘rtog‘i shu yerga olib kelib ko‘rsatadi. Natijada qaysidir hovlida ish boshlanib, baraka kirib boradi. Bu men uchun ham, o‘sha oila uchun ham quvonarli.

To‘raqul otaning ro‘zg‘origa kunlik mablag‘ keltirayotgan yana bir yo‘nalish — parrandachilik. Hovlining bir chetidagi kattagina katakda 200 ga yaqin tovuq boqish yo‘lga qo‘yilgan. Natijada bir kunda o‘rtacha 100 dona tuxum olinayapti. Har kuni tuxumning donasi 1500 so‘mdan sotiladi. Demak, kunlik daromad 400 ming so‘mga yaqin bo‘lib qoladi. Sut va tuxumning o‘zidan oyiga 12 million so‘m so‘f foyda bor.

To‘raqul otaning tashabbuskorligi, hovlidan chiqmay yuqori daromad topishi ko‘pchilik uchun namuna qilib ko‘rsatilayotgani sir emas. Ayniqsa, ish izlab xorijda sarson yurgan yoshlar uchun tajriba maktabi. Sababi otaning umumiy daromadini bir yilda milliard so‘mdan oshadi. Bundan tashqari, ota ishlab topgan mablag‘i hisobidan kam ta‘minlangan oilalarga yordam beradi. Shu bilan birga, mahallaning obodligiga ham hissa qo‘shmoqda.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

IJTIMOY SHERIKLIK TAMOYILLARINING ZAMONAVIY TIZIMI



Naim OBLOMURODOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti professori,
tarix fanlari doktori

Boshlanishi 1-betda

“Kasaba uyushmasi” termini inglizcha “trade union” yoki “labour union” deb ataluvchi, ishchi va xodimlarning mehnat, ijtimoiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tashkilotni anglatadi. Kasaba uyushmasi paydo bo‘lishi tarixiga nazar solsak, sanoat inqilobi davrida (XIX asr) Buyuk Britaniya va AQSHda ishchilar guruhlari o‘zaro birlashib hamda mehnat sharoitlari, ish haqi va ish muddatlari bo‘yicha birgalikda kurashib, dastlabki kasaba uyushmalarini tashkil etdi. Masalan, Britaniyada 1871-yilda “Trade Union Act” qabul qilinib, kasaba uyushmalariga qonuniy faoliyat yuritish imkoniyati ochila boshladi.

XX asrda kasaba uyushmalari milliy darajada kengayib, keyinchalik xalqaro tashkilot maqomiga ko‘tarildi.

Kasaba uyushmalari milliy darajadan chiqib, global tarmoqlarga ko‘shildi. Bu orqali ishchi huquqlari global standartlarga moslashyapti, transmilliy kompaniyalar bilan muzokaralar olib borilyapti va ijtimoiy himoya tizimi takomillashtirilmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining 2020-yilda bo‘lib o‘tgan sakkizinchi qurultoyi ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida mamlakatimizdagi eng yirik fuqarolik instituti bo‘lgan kasaba uyushmalarining o‘rni va roli keyingi yillarda oshib borayotganini alohida e‘tirof etib, mustaqil davlatimiz tarixida ilk bor 11 noyabrni Kasaba uyushmalari kuni etib belgilash taklifini bildirgan edi.

2020-yil 23-noyabrda “O‘zbekiston kasaba uyushmalari kunini belgilash to‘g‘risida” gi qonun qabul qilinib, 11-noyabr Kasaba uyushmalari kuni etib belgilandi.

Tizimda Mehnat inspeksiyasi tashkil etilgani jamoatchilik nazoratini o‘rnatish borasida ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Keyingi besh yilda kasaba uyushmalari inspektorlari tomonidan 13 mingdan ziyod tashkilotda qariyb 46 mingga yaqin kamchilik aniqlanib, ularning aksariyati bartaraf etildi. Jamoatchilik nazorati orqali qariyb 500 ming xodimning huquqi tiklanib, ular foydasiga 267 milliard so‘m undirib berildi.

Davlatimiz rahbarining qo‘llab-quvvatlashi tufayli mehnatga haq to‘lashning eng kam

miqdori ko‘rib chiqilib, o‘tgan besh yil ichida 2 barobar oshirildi.

2025-yilga kelib, jamoa shartnomalari soni 2021-yildagi 110 mingdan 127 mingga, qamrab olingan xodimlar soni esa 4,3 milliondan 5 million 540 mingga yetdi. Jamoa shartnomalari va kelishuvlari orqali 960 mingdan ortiq ayol, yosh va keksa manzilli qo‘llab-quvvatlandi.

1991-yildan 2017-yilgacha o‘tgan 26 yil davomida kasaba uyushmalari tizimida 1 ta yangi sanatoriy qurilgan bo‘lsa, oxirgi 9 yil davomida tizimda 14 ta yangi sanatoriy qurilib, foydalanishga topshirildi va yana 10 ga yaqini rekonstruksiya qilindi. Natijada o‘rinlar soni 2017-yildagidan 2 ming 43 taga oshib, yiliga qo‘shimcha 60 mingdan ziyod aholini sog‘lomlashtirish imkonini yaratildi.

Keyingi besh yilda federatsiya tizimidagi sanatoriy va dam olish uylarida 900 mingga yaqin fuqaro sog‘lomlashtirildi. Ularning 43 foiziga imtiyozli yo‘llanmalar ajratilib, salomatligi mustahkamlandi.

Prezidentimizning tegishli qaroriga ko‘ra, 2022-yilda federatsiya tizimida Bolalarning dam olishi va sog‘lomlashtirilishini tashkil etish departamenti tuzildi. Faoliyatini to‘xtatgan yoki samarasiz ishlayotgan 82 ta bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi mazkur qaror asosida federatsiya balansiga o‘tkazildi va tasarrufdagi oromgohlar soni 110 tadan oshdi. 2020-2025-yillarda 9 ta yangi bolalar oromgohi qurildi, 76 tasi kapital ta‘mirlandi. 2021-2025-yillar yoz mavsumida 1 million 545 mingdan ortiq bola, shundan 800 ming

o‘tgan yilgi saylov natijalariga ko‘ra, kasaba uyushmalarining 52 xodimi va faoli tuman va shahar kengashlariga, 17 nafari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahri kengashlariga deputatlikka saylandi. Bu yurtdoshlarimizning kasaba uyushmalariga ishonchi ortib borayotganidan dalolat.

Hozirgi kunda kasaba uyushmalarining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rni va ta‘siri tobora ortib bormoqda. Buning sababi, eng avvalo, tashkilotning xalq ichiga chuqur kirib borayotgani, odamlarning og‘irini yengil qilish, el-yurt xizmatiga kamarbasta bo‘lishni o‘zining ustuvor vazifasi sifatida belgilab olganidadir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat qurilishining yangi strategik maqsadi — ijtimoiy davlat qurish, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplarini joriy etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish kabi mutlaqo yangi mexanizmlarni nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi. Xususan, Konstitutsiyada “Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba uyushmalariga a‘zo bo‘lish ixtiyoriydir”, deb mustahkamlab qo‘yildi.

Fuqarolarning kasaba uyushmalariga birlashishga bo‘lgan huquqini amalga oshirishga to‘g‘rinlik qilish, shuningdek, ularni kasaba uyushmasiga a‘zo bo‘lish yoki a‘zolikdan chiqishga majburlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kasaba uyushmalari o‘z a‘zolarining mehnat huquqlarini himoya qilish, ayniqsa,



nafari stasionar, 700 mingdan ziyodi kunduzgi oromgohlarda sog‘lomlashtirildi.

Bundan tashqari, jahon standartlariga to‘la javob beruvchi Kasaba uyushmalari suv sporti saroyi foydalanishga topshirildi. Yana bir muhim jihat, oxirgi yillarda kasaba uyushma a‘zolari soni 8 million nafarga yetdi.

Kasaba uyushma mutaxassislari va faollari salohiyatini oshirish borasidagi ishlar natijasida mamlakatimizda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlarga

ish bilan ta‘minlash borasidagi davlat siyosatini ishlab chiqishda ishtirok etishi, ish beruvchilar tomonidan mehnat va sohaga taalluqli qonun hujjatlari normalariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi, shuningdek, xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilib, sudga da‘vo arizasi, zarur hollarda sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilish huquqi belgilangani ahamiyatlidir. Zero, Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, mamlakatimizda faoliyat



ko‘rsatayotgan barcha ish beruvchilar va rahbarlar butun dunyoda tan olingan quyidagi qoidaga amal qilsa yaxshi bo‘lardi: har qaysi korxona yoki tashkilotda kasaba uyushmasi faoliyat ko‘rsatishi va rahbarlar albatta ular bilan yaqin hamkorlikda ish olib borishi shart. Shundagina jamiyatimizda mehnat qonunchiligi buzilishi holatlarining oldi olinadi, hayotimizda ijtimoiy adolat qaror topadi.

Iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlari sharoitida kasaba uyushmalarini tashkiliy jihatdan mustahkamlash, kuch va mablag‘larni birlashtirishga ehtiyoj kuchaydi. Endilikda O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi o‘z faoliyatini ijtimoiy sherikchilik asosiga qurmoqda va hukumat, vazirliklar, idora va viloyat hokimliklari bilan ikki tomonlama hududiy va tarmoq bitimlari tuza boshladi. Mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta‘minlash, ishsizlikning oldini olish, mehnatkashlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, mehnatkashlar va ularning oila a‘zolarini sog‘lomlashtirish masalalari bilan shug‘ullanish kasaba uyushmalari faoliyatining eng muhim yo‘nalishlariga aylandi.

Shuningdek, 100 yildan ortiq tarixga ega, o‘z vaqtida milliy san‘atimiz va jahon madaniyatining mashhur darg‘alari betakror va yorqin iste‘dodini namoyon etgan, Toshkent shahri markazidagi sobiq madaniyat maskani bugun Kasaba uyushmalari saroyi sifatida qayta bunyod etildi. Ushbu san‘at koshonasi kasaba uyushmalari sa‘y-harakati bilan o‘zbek madaniyati va san‘atini yanada ravnaq toptirish, yosh avlodning ma‘naviy dunyosini yuksaltirishdek ezu ishga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shmoqda.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiya-

sining Mehnat va ijtimoiy munosabatl

akademiyasi tashkil etilgani soha uchun

yuqori malakali kadrlar tayyorlash va mehnat

munosabatlarni ilmiy tadqiq qilish nuqtayi

nazaridan muhim ahamiyatga egadir.

Kasaba uyushmalari tomonidan korxona,

tashkilot, muassasalarda ishlayotgan, oliy va

o‘rta-maxsus ta‘lim muassasalarida ta‘lim

olayotgan yoshlar, shuningdek, ayollarning

ijtimoiy-iqtisodiy himoyasini kuchaytirish, ular bilan ishlashni tizimli yo‘lga qo‘yish maqsadida federatsiya huzurida yoshlar va xotin-qizlar kengashlari tashkil etildi.

Aholi bandligini ta‘minlashga ko‘maklashish doirasida kasaba uyushmalari yaratilayotgan yangi ish o‘rinlarining haqqoniyligini o‘rganishda ishtirok etmoqda. Aholi bandligini ta‘minlash va yoshlarni ishga joylashtirishda kasaba uyushmalari ishtirokini ta‘minlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

Norasmiy sektorda mehnat munosabatlarni rasmiylashtirishga ko‘maklashishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shunday korxona va tashkilotlar xodimlarini kasaba uyushmalariga jalb etishga qaratilgan aniq choralar ko‘rilmoqda.

O‘tgan davrda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar sabablarini aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf etilishini ta‘minlash maqsadida kasaba uyushmalari mehnatni muhofaza qilish mutaxassislari uchun ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish komissiyalari ishida ishtirok etish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma, Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar haqida O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tizimida xabardor etish tartibi, Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish komissiyasi ishida kasaba uyushmalari vakilligini belgilash tartibi ishlab chiqildi.

Boshlang‘ich tashkilotlarning korxona, tashkilotlarda tugan o‘rni va mavqeini yanada oshirish, xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini samarali himoya qilish borasidagi faoliyatiga ko‘maklashish maqsadida har ikki yilda bir marta “Eng namunalı boshlang‘ich tashkilot” ko‘rik-tanlovi o‘tkazilmoqda. Boshlang‘ich tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda.

Yosh mutaxassislarga iqtidorlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish maqsadida har yili “Yilning eng faol yosh mutaxassisi” ko‘rik-tanlovi o‘tkazilayotgani kutilgan samara beryapti.

Keyingi besh yilda federatsiya tizimidagi sanatoriy va dam olish uylarida **900 mingga** yaqin fuqaro sog‘lomlashtirildi. Ularning **43 foiziga imtiyozli yo‘llanmalar** ajratilib, salomatligi mustahkamlandi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston kasaba uyushmalarining xorijiy mamlakatlardagi turdosh va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi rivojlanib borayotgani yurtimiz nufuzini jahon miqyosida tarannum etishga xizmat qilmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat kengashiga monand tarzda O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tashabbusi bilan tuzilgan Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari kengashi mintaqamamlakatlari mehnatkashlari o‘rtasida o‘stlik va birdamlik, o‘zaro manfaat va ishonch tamoyillariga asoslangan yaqin qo‘shnichilik munosabatlarni jadal rivojlantirish uchun o‘ziga xos muloqot maydoni vazifasini bajarmoqda.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiya-si Kasaba uyushmalari umumkonfederatsiyasiga a‘zolikka qabul qilindi, Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kasaba uyushmalari faoliyati samaradorligini oshirishda huquqiy mustaqillikni ta‘minlash, ishchi-xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirib borish, milliy daraja hamda sohaviy yo‘nalishlarda jamoaviy bitimlar tizimini rivojlantirish va kengaytirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llash, jamiyatimizda kasaba uyushmalarining roli va ahamiyatini oshirish maqsadida keng targ‘ibot-ma‘rifat ishlarini olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda mehnatkashlarimiz qalbida shukronalik tuyg‘usi kundan kun oshmoqda. Kasaba uyushmalarining barcha ish va harakatlari zamirida har bir mehnatkash uchun munosib mehnat sharoiti yaratish, oilasi va farzandi kelajagini ta‘minlashga ko‘maklashish, ma‘naviy jihatdan sog‘lomligi hamda baxtu saodatiga erishish maqsadi mujassam.

Mamlakatimizda kechayotgan demokratik yangilanishlar, “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosidagi islohotlar yangi O‘zbekiston kasaba uyushmalari oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Kasaba uyushmalari ham mehnatkashlarimiz haq-huquqlarini ta‘minlash, munosib mehnat sharoitlari yaratish, yoshlarimizni qo‘llab-quvvatlash, millatimizning yuksak ma‘naviy sifatlarini ardoqlab, ularni yanada boyitish, rivojlantirish va dunyoga ko‘rsata olish kabi vazifalarni ado etishda faollik bilan olg‘a qadam tashlamoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, yangi O‘zbekis-tonning bu boradagi yutuqlari bugun xalqaro miqyosda ham tan olinib, yuksak baholanyapti. Tabiiyki, bu yangilanish va o‘zgarishlarda kasaba uyushmalari faol ishtirok etib, islohotlarni qo‘llab-quvvatlagan holda turli soha xodimlarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari hamda mehnat sohasidagi huquqlarini himoyalash yo‘lida xizmat qilmoqda.

Katta va boy tajriba maktabi, shonli an‘analarga ega bo‘lgan mamlakatimiz kasaba uyushmalari yangi O‘zbekistonda yangicha mehnat munosabatlari shakllanishi va ravnaq to-pishiga munosib hissa qo‘shishda davom etadi.

Obod go‘shalar

Inson o‘z uyiga ega bo‘lsa, ko‘ngli xotirjam, ishi unumli va barakali bo‘ladi. Surxondaryoda ana shunday baxtga erishayotgan yurtdoshlarimiz safi kengayib boryapti. Davlatimiz rahbarining “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni asosida minglab oilalar zamonaviy uy-joyga ega bo‘lmoqda. Shu tariqa “Inson qadri uchun” degan ezu tamoyil har bir oilaning hayotida o‘z ifodasini topmoqda.

Jarqo‘rg‘on tumanidagi Qora yantoq mahallasida zamonaviy, o‘ziga xos me‘moriy qiyofadagi shaharcha bunyod etiladi desa, birov ishonmasdi. To‘g‘ri-da, qum barxanidan iborat, qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuyadigan bu joyda yashil giyovhni uchratish

amri mahol edi. Bugun bu yerda ilm-fan asosida ishlab chiqilgan loyihaga ko‘ra, “Yangi O‘zbekiston” massivi barpo etilmoqda.

— Loyihadan maqsad cho‘lni obod go‘shaga aylantirish, aholining turmush darajasini butunlay yangi bosqichga olib chiqishdir. Bugun ana shu ovloq joy ko‘p qavatli uylarning chirog‘idan charog‘on bo‘lyapti. Baxtli oilalar, jajji farzandlar kulgisi esa unga yanada fayz bag‘ishladi, — deydi Jarqo‘rg‘on tumani hokimligi mutaxassisi Dilnoza Choriyeva.

Zamonaviy infratuzilmaga ega “Yangi O‘zbekiston” massivi Shohista Mengliyeva singari yuzlab yoshlar hayotini tubdan o‘zgartirdi. Ularning orzusidagi keng va shinam xonadonlar, qulay yashash sharoiti, bolalar uchun bog‘cha va maktablar hayotiy haqiqatga aylandi.

Mazkur massivni barpo etish uchun 2021-yilda Qora yantoq mahallasi hududidan 25 gektar yer ajratilgan edi. Oradan ko‘p o‘tmay, 2022-yil boshida hududda 3 ta 5 qavatli uy foydalanishga topshirildi. Hozirgacha 56 ta xonadon uchun boshlang‘ich badal to‘lanib, uy egalari ko‘chib keldi.

— Bugun quvonchimiz cheksiz. Qisqa muddatda ko‘z o‘ngimizda ko‘p yillik orzumiz amalga oshmoqda. Uy-joyli bo‘ldik. Bu yerda maktab, poliklinika, sayilgoh, savdo do‘konlari



ham qurilgan, — deydi yangi xonadon bekasi Sarvinoz Hamroyeva.

Hozirgacha 7 ta mikromarkaz, 29 ta savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish obyekti qurildi. Bundan tashqari, massiv hududida 50 qatnovli oilaviy poliklinika, 180 o‘rinli bolalar bog‘chasi,

330 o‘rinli maktab va axborot texnologiyalari markazi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

— “Yangi O‘zbekiston” massivi va atrofidagi obyektlar rejasi puxta tuzilgan. Xususan, istiqbolda aholining o‘ishi, hududning infratuzilmasi va ishlab chiqarish kengayishi

kabi jihatlar hisobga olingan. Shuningdek, massivga yondosh hududda foydalanishdan chiqqan yer bor. Bu joyni qayta o‘zlashtirib, issiqxonalari, savdo va xizmat ko‘rsatish shoxsohchalari bunyod etilmoqda, — deydi “Yangi O‘zbekiston” massivida joylashgan “Ulug‘bek” MFYdagi yoshlar yetakchisi Jahongir Pardayev.

Infratuzilma obyektlarini qurish va obodonlashtirish ishlari shu bilan yakun topmagan. Massivga 1,9 kilometr ichimlik suv, 3,9 kilometr oqova suv, 2,3 kilometr issiqqonlar mavg‘i, 2,8 kilometr masofaga gaz quvuri tortildi. Shuningdek, 5 ta transformator o‘rnatilgan.

— Rejaga ko‘ra, 2022-2026-yillarda Jarqo‘rg‘ondagi “Yangi O‘zbekiston” massivida jami 86 ta ko‘p qavatli uy quriladi. Ayni paytda qurilishi davom etayotgan binolarda ichki va tashqi pardozlash ishlari bajarilmoqda. Yaqin vaqtda yana yuzlab xonadon yosh oilalarni o‘z bag‘riga oladi. Bundan tashqari, butun massiv bo‘ylab piyodalar yo‘lakchalari qurilib, 4,5 gektar yerga markazali va mevali daraxtlar hamda 300 gektar dasht hududiga saksuvul ekildi, — deydi Jarqo‘rg‘on tumani hokimi o‘rinbosari Shavkat Shokirov.

Hududning tabiiy-iqlim sharoitidan kelib chiqib, massivda yashil belbog‘lar tashkil

qilinmoqda. Uylar atrofida turli mevali va manzarali daraxtlar ekilib, ularni sug‘orish tizimi barpo etilmoqda.

Bu yerga kelgan kishi odamlari samimi, atrofi yashillikka kurangan, barcha sharoitga ega shaharchaga tushib qolgandek sezadi o‘zini. Chunki massivda nafaqat ko‘p qavatli turar joylar, balki maktab va maktabgacha ta‘lim tashkiloti, sport maydoni, o‘quv markazlari ham bor. Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston” oilaviy shifokorlik punkting tashkil etilgani yangi massiv, Qora yantoq mahallasi ahli uchun ham juda qulay bo‘ldi.

Bugun Sariosiyo, Boysun, Jarqo‘rg‘on, Angor va Termiz tumanlaridagi “Yangi O‘zbekiston” massivlarida 5 va 9 qavatli uylar qad rostlamqda. Har bir xonadonda alohida issiqlik va suv isitish tizimi o‘rnatilgan. Bu xona haroratini mustaqil boshqarish, energiya sarfini 2 barobargacha qisqartirish imkonini beradi.

Qaror va farmonlar xalq hayotida, ularning kundalik turmush tarzida o‘z aksini topmoqda. Bu xalqimiz qalbida ertangi kunga ishonchni, yurtga muhabbat va islohotlarga ishtiyiqni yanada mustahkamlayapti. Shu jihatdan olib qaralganda, bugun Surxondaryo viloyatidagi bunyodkorlik ishlari nafaqat arxitektura, balki inson qalbida ham yangi nafas, yangi ruh, yangi orzu-umidlarni uyg‘otmoqda.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

V
“Bor” so‘zi. “Bor” shakliga ega bo‘lgan bir necha so‘z bor, endi shular bilan tanishamiz. “Bor” shaklidagi shakldosh so‘zlarning biri “yo‘q” so‘zining ziddi bo‘lib, mavjud degan ma‘nodadir. Bir nimani mavjud demoqchi bo‘lsak, “bor” deymiz.

Bu so‘z — “dir”, “erur” ma‘nosida ham qo‘llaniladi. Masalan, “bormen musofir ham g‘arib” deganda, “bor” so‘zi — “dir”, “erur” ma‘nosida qo‘llangan. Ba‘zan yo‘q so‘zi bilan birga “boru yo‘q” yoki “yo‘g‘u bor” tarzida, ba‘zan yolg‘iz o‘zi va ko‘pincha uchinchi shaxs egalik qo‘shimchasi bilan “bori” yoki “bari” shaklida “hamma” ma‘nosida ham ishlatiladi.

“Bor” shaklidagi so‘zlardan yana biri “bormoq” fe‘lining o‘zagi va uning buyruq formasidir. “Bormoq” fe‘lining ketmak ma‘nosida ishlatilishini ham yoddan chiqarmaslik kerak. Masalan, “maktabga bor” degandagi “bor” so‘zi “bormoq” fe‘lining buyruq formasidir.

“Bor” shaklidagi so‘zlardan yana biri qabul ma‘nosidagi “bor” so‘zidir. “Borgoh” so‘zi mana shu qabul ma‘nosidagi “bor” so‘zidan yasalgan bo‘lib, qabulxona degan ma‘nodadir. “Necha borib eshigiga bor topmadim” degan misradagi “bor” so‘zi mana shu qabul ma‘nosidagi “bor”dir. “Bor ahli” degandagi “bor” so‘zi ham qabul ma‘nosidadir. Bor ahli yoki qabul ahli rad ahlining ziddidir.

Yana yuk va og‘irlik ma‘nolaridagi “bor” so‘zi ham mavjud bo‘lib, yuk tashuvchi, og‘irligini tortuvchi degan ma‘nolardagi “bor” so‘ziga tortar ma‘nosidagi “kash” so‘zini qo‘shib yasalgandir.

Yana meva ma‘nosidagi “bor” so‘zi ham mavjud bo‘lib, u yuk ma‘nosidagi “bor” so‘zidan ajralgandir. Navoiyning:

G‘am gulshanida qadim erur
ul yog‘ ochkim,

Paykonu bori hajring aning
bargu boridur,

degan baytiddagi birinchi “bor” yuk, og‘irlik ma‘nosidagi “bor” so‘zi va ikkinchisi meva ma‘nosidagi “bor” so‘zidir.

Yana “marta” ma‘nosidagi “bor” so‘zi ham bor, Masalan, “bir bor”, “ikki bor” degandagi “bor” so‘zi marta ma‘nosidadir.

Yana yog‘ar, yog‘dirar, sochar ma‘nolaridagi “bor” so‘zi mavjud bo‘lib, yosh sochar ma‘nosidagi “ashkbor”, mushk sochar ma‘nosidagi “mushkbor” kabi so‘zlarning tarkibida uchraydi.

Lutfiyning mashhur bir tuyug‘i bo‘lib, unda mazkur “bor” shakliga ega bo‘lgan so‘zlardan to‘rttasi ishlatilgan. Tuyuq bunday:

Ey ko‘ngul, yorsiz senga ne bor bor,
Qaydakim ul zulfi anbarbor bor.
Chek jafovu javru nozi borini,
Bir kun o‘lg‘aykim, degaylar “bor bor”.

Bu tuyuqning radiifidagi “bor” so‘zi mavjud ma‘nosida. Birinchi misra qo‘fiyasidagi “bor” meva ma‘nosidagi “bor” so‘li, hosil, natija ma‘nosida qo‘llangan. “Ey ko‘ngul, yorsiz senga ne bor bor”, ya‘ni qanday hosil, natija bor. Ikkinchi misra qo‘fiyasidagi “anbarbor” anbar yog‘diruvchi, anbar sochuvchi degan ma‘nodadir. Qaydakim ul zulfi anbarbor bor — qayerda o‘sha anbar yog‘diruvchi, ya‘ni xushbo‘y qora zulf bo‘lsa, chek jafovu javru nozi borini, demakdir. To‘rtinchi misra qo‘fiyasidagi “bor” esa qabul ma‘nosidagi “bor”dir. Bir kun o‘lgaykim, degaylar bor bor, ya‘ni javru jafosi nozini tortaversang, oxir bir kuni qabul bor degaylar, ya‘ni qabulga erishasan.

“Pero” so‘zi. O‘zbek tilida “pero” so‘zi faqat temirdan qilingan yozuv quroliga nisbatan qo‘llanadi. Rus tilida esa bundan tashqari, “pat” ham “pero” deb ataladi. Temir pero yasalmasdan burun Yevropada xat yozish uchun patdan, asosan, g‘oz patidan foydalananglar. Temir pero qurol sifatida patning vazifasini bajargani uchun bir yangi qurolni ham “pero”, ya‘ni “pat” deb atanganlar. Farqlash kerak bo‘lganda, temir peroni “стальное перо”, ya‘ni “po‘lat pat” deb ataydilar. O‘zbekchadagi “pero” so‘zi ma‘no jihatdan ruschadagi “стальное перо”ga to‘g‘ri keladi. Unisi o‘zbekchadagi “pat” yoki “patqalam” deyiladi. Sharqda, jumladan, O‘zbekistonda “pat” yozuv quroli sifatida ishlatilmagan.

Faqat musavvir (rassom)lar tasvir (rasm solish)da kaptar patidan foydalananglar. Qalam esa qamishdan yasalgan. Televizorda ba‘zan o‘zbek klassik shoirlarining qo‘liga patqalam tutqazib qo‘yiladi. Bu to‘g‘ri emas. Ularda qalam, ya‘ni qamishdan yasalgan yozg‘ich bo‘lgan va qalam boshqa yozuv asboblari bilan birga qalamdonda saqlangan. Hozir biz



yevropacha qalamni bizga ruslar olib kelgani uchun uni ruscha so‘z bilan “ruchka” deb ataymiz. “Ruchka” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi, aslida, “qo‘lcha”, “tutqich” degani. U qo‘l ma‘nosidagi “pyka” so‘zidan yasalgan. Aslida, forschga “dasta” so‘zi ham qo‘l ma‘nosidagi “dast” so‘zidan xuddi “ruchka”ga o‘xshatib yasalgan. “Dasta”dagi “a” qo‘shimchasi qadimda “aka” tarzida bo‘lgan va bu hozirgi ruschadagi “ka” qo‘shimchasi bilan bir manbaga ega.

Hozirgi o‘zbek tilida “qalam” so‘zi yozuv qurolining ikki turiga nisbatan ishlatiladi, qamish qalamga nisbatan va grafit qalamga, ya‘ni karandashga nisbatan. “Karandash” so‘zining o‘zi rus tiliga turkiy tillardan o‘tgan bo‘lib, asl shakli oxirgi tadqiqotlarga muvofiq “qalamtosh”dir.

Qamish qalamni pat qalamdan farq qilish zarur bo‘lganda ruslar uni “тростниковое перо” yoki “kalyam” yoxud “kalam” deb ataydilar. “Тростник” qamish degani, tarjimon Lev Penkovskiy Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini ruschaga tarjima qilganda “qalam” so‘zini “kalam” shaklida bergan.

U Navoiyning “Farhod va Shirin”dagi:

Qalamkim, rahnavardi teztakdur,
Azaldin manzili favq ul-falakdur,
degan baytini:


Калам! Ты нашей мысли скоро-
ход,

Превысил ты высокий не-
босвод,

deb tarjima qilgan.

“Qalam” so‘zining asl lug‘aviy ma‘nosi, umuman, kesim, xususan, qamish kesimdir. Shuning uchun bir kesim qazi “bir qalam qazi” deyiladi, parraklangandan so‘ng “yaproq” deyiladi.

“Massa” so‘zi. Bu so‘z aslida lotincha bo‘lib, o‘zbek tiliga rus tili orqali o‘zining asosiy va fizikaga oid ma‘nosi bilan o‘tgan.



Hozirgi o‘zbek tilida “qalam” so‘zi yozuv qurolining ikki turiga nisbatan ishlatiladi, qamish qalamga nisbatan va grafit qalamga, ya‘ni karandashga nisbatan. “Karandash” so‘zining o‘zi rus tiliga turkiy tillardan o‘tgan bo‘lib, asl shakli oxirgi tadqiqotlarga muvofiq “qalamtosh”dir.

Rus tilida uning bir necha ma‘nosi bor. “Massa” so‘zining rus va o‘zbek tillari uchun umumiy bo‘lgan asosiy ma‘nosi hajm va miqdor e‘tibori bilan jismning moddasidir. Eski vaqtda o‘zbek tilida shu ma‘noda Sharq tillari uchun umumiy bo‘lgan “jim” so‘zi qo‘llangan. Hozirgi o‘zbek tilida “massa” so‘zi norma tusini olgan. Hozir rus “масса земли” deganni o‘zbek “yer massasi” deydi. Rus “масса тела” deganni o‘zbek “jism massasi” deydi. Eski o‘zbekchada “yer jirmi”, “jism jirmi” deyilgan.

Ammo rus tilida bu so‘zning o‘zbek tilida

yo‘q bo‘lgan boshqa ma‘nolari ham bor. Shulardan biri bo‘tqa ma‘nosidir. Masalan, qog‘oz ishlaganda xomashyoning bo‘tqa holiga keltirilganini “бумажная масса” deb ataydilar. Agar molga beriladigan yem ham bo‘tqa holatida bo‘lsa, unga nisbatan ham rus tilida “massa” so‘zi ishlatilishi mumkin. Bo‘tqa ko‘k o‘simlikdan tayyorlangan bo‘lsa, uni badiiy qilib ifodalash maqsadida “зеленая масса”, ya‘ni “ko‘k bo‘tqa” deb ham ataydilar.

Mana shuni ba‘zilar ayrim hollarda suiste‘mol qiladilar. Masalan, “jo‘xoripoya o‘rib olindi” deyish o‘rniga “ko‘k massa o‘rib olindi” deydlir. Bu til nuqtayi nazaridan to‘g‘ri emas. Chunki jo‘xoripoya bo‘tqa emas, undan tashqari, bo‘tqa o‘rib olinmaydi. “Massa” so‘zini bu xilda ishlatish rus tili nuqtayi nazaridan ham to‘g‘ri emas. Chunki “зеленая масса” iborasini ruschada ham jo‘xoripoyaga nisbatan ishlatish mumkin. Yana rus tilida “massa” so‘zining to‘p, to‘da ma‘nosi bor. Masalan, “масса муравьев” deganda qumursqa to‘dasi, “масса камней” deganda tosh to‘pi tushuniladi. Yana bu so‘zning “omma” ma‘nosi ham bor, masalan, omma bilan aloqada bo‘lishni “связь с массой” deyiladi. Bulardan tashqari, “massa” so‘zining ko‘p, ko‘plab degan ma‘nosi ham bor. Masalan, “odam ko‘p yig‘ildi”, degan gapni ruscha “собралась масса людей” deyish mumkin.

“Kompyuter” so‘zi. Bu so‘z inglizcha bo‘lib, hisoblamoq ma‘nosidagi “kompyut” fe‘liga “chi” ma‘nosidagi “e” deb aytiladigan “er” qo‘shimchasi qo‘shib yasalgan so‘zdir. Mazkur so‘z insonga nisbatan ham, uskunaga nisbatan ham ishlatila beradi. Binobarin, “kompyuter”



Masalan, tibbiyotda kasal turini aniqlashda ham hisoblagichdan foydalanilmoqda. Ikkinchi sababi bir so‘zning iboraga nisbatan ixchamligidir. Tilda ixchamlikka intilish asli bor. Buni lingvistikada “tejash prinsipi” deb ataydilar. Rus tilida “вычислительная машина” deganda, uskuna hisob bilan cheklangan deb tushuniladi. Ammo “kompyuter” deganda, aslan ingliz tilida mavjud bo‘lgan “hisob” ma‘nosi ruschada o‘qilmaydi. Mana shu sabablarga ko‘ra, hozir “kompyuter” so‘zi ko‘proq qo‘llana boshladi.

“Spiritizm” so‘zi. Bu so‘z lotincha arvoh ma‘nosidagi “spiritus” so‘zidan olingan bo‘lib, uning lug‘aviy ma‘nosi arvohchilikdir. Maxsus ma‘nosi o‘lgan kishining ruhi bilan aloqa bog‘lashdir. Bunga ishonuvchi yoki shu ish bilan shug‘ullanuvchi “spirit” deyiladi.

Spiritizm xurofotga asoslangan firibgarlikdan iborat bo‘lib, G‘arbiy Yevropa va Amerikada keng tarqalgan. Inqilobdan oldin Rossiyada ham spiritizm mashhur bo‘lgan.

Sharqda bu amalning o‘zi Yevropadagidek ma‘lum bo‘lmasa ham nomi bor. Buni “istihzor” yoki “istihzor ul-arvoh” deb ataydilar.

“Abstraksiya” so‘zi. Bu so‘zning lug‘aviy ma‘nosi aritish, ayirish bo‘lib, bu so‘z xorijdagi, ya‘ni zehndan tashqaridagi mavjudotning bir yoki bir necha jihatini, xossasini yoki ular orasidagi munosabatlarni fikran ajratib olishni va shu fikriy amal natijasida zehnda hosil bo‘lgan tushunchani bildiradi. Demak, “abstraksiya” so‘zi ham fikriy amalni, ham fikriy amal natijasini anglatadi. Amalni bildirganda u “абстрагирование” so‘ziga ma‘nodosh bo‘ladi.

“Abstraksiya” so‘zi fikriy amalni bildirganda, ya‘ni ma‘no jihatdan “абстрагирование” so‘ziga to‘g‘ri kelganda esa o‘zbek tilida qo‘llangan “tajrid” va “muforaga” so‘zlari muodildir. Amal natijasini, ya‘ni zehnda mavjud tushunchalarni anglatganda esa “muforaga”, “mujarrada” va “e‘tibor” so‘zlarga ekvivalentdir. Bu so‘zlarning ko‘pligi “muforaqot”, “mujarradot” va “e‘tiborot” shaklidir. O‘zbek tilida abstraksiyaning bir turiga nisbatan “ma‘no” so‘zi ham qo‘llangan. Hozir “abstraksiya” so‘zi o‘zbek tiliga ham o‘tgan va u ilmiy nutqda qo‘llanadi.

“Abstraksiya” so‘zini ravshanlashtirish uchun misol keltiraylik. Masalan, mavjudot bir-biridan rangi bilan ham farq qilishi mumkin. Oq olma bor, qizil olma bor, oq gul bor, qizil gul bor, sariq gul bor, pushti gul bor va hokazo. Biz olmadan olmani, guldin gulni farqlash yoki olma bilan gulni rang jihatidan birlashtirish uchun olmalar va gullardan ularning rangini fikran ajratib



olamiz. Mana shu fikriy amal “tajrid” yoki “muforaga” va “abstraksiya” yoki “абстрагирование” deb ataladi. Mazkur fikriy amal natijasida ongimizda “qizillik” tushunchasini hosil qilamiz, bu tushuncha vujud nuqtayi nazaridan faqat bizning ongimizda mavjud bo‘lib, xorijda alohida “qizillik” degan narsa yo‘q. Qizil gul, qizil olma va boshqa qizil narsalar bor, lekin faqat qizil tusning o‘zidan iborat narsa yo‘q. Bo‘yoqning ham o‘z moddasi bor, u ham sof tusdan iborat emas. Mana shu tushuncha ham “abstraksiya” deyiladi.

Abstraksiyaga yana bir misol. Eshmat bilan Toshmat, Zayd bilan Amir, Ivan bilan Andrey degan kishilar o‘zlarining insoniy vazifalarini yaxshi bilganliklari va oqibatni tasavvur qilganliklari tufayli bir-birlarini hurmat qilib, bir-birlariga faqat yaxshilik qiladilar va faqat yaxshilikni istaydilar. Bular orasidagi munosabat oqilona va ijobiy munosabat bo‘lib, bu munosabat ham Toshmatni, ham Eshmatni, ham Amirni, ham Zaydni, ham Ivanni, ham Andreyni faqat yaxshilikka olib boradi.

Endi yana boshqa bir-birini va boshqalarni ko‘rolmaydigan Qora, Oqbola, Чёрный, Белый degan laqabli guruh bor. Bularning ishi faqat o‘zlariga va o‘zgalarga zarar yetkazishdan iborat.

Birinchi guruhning munosabatini ularning o‘zlaridan ajratib olib, ongimizda “do‘stlik” degan tushuncha, ikkinchi guruhning munosabatini ularning o‘zidan ajratib olib, “dushmanlik” degan tushuncha hosil qilamiz. Bu ham abstraksiya deb ataladi.

“Realizatsiya” so‘zi. Bu so‘zning ikkita ma‘nosi bor. Birinchisi — amalga oshirish, ijrodir. Masalan, “реализация проекта” loyihani amalga oshirish degani, “реализация идеи” fikrni amalga oshirish degani.

“Realizatsiya”ning ikkinchi ma‘nosi pullashdir. Masalan, “реализация товара” molni pullash degani. Buning asli ikki so‘z bo‘lib, bir so‘zday o‘qilib ketgan va lug‘atlarida ham ikki ma‘noli bir so‘z deb qayd qilindi hamda lotincha “buyum” degan ma‘nodagi “realis” so‘zidan olingan deb taxmin qilinadi. Haqiqatda esa “realizatsiya” so‘zi birinchi, ya‘ni amalga oshirish ma‘nosi bilangina “realis” so‘ziga aloqadordir. “Realis” so‘zidan yasalgan “realizatsiya”ning tub lug‘aviy ma‘nosi buyumlashish va buyumlashtirish bo‘lib, zehndagi yoki qog‘ozdagi narsani biror narsaga, buyumga aylanishi yoki aylantirish nazarda tutiladi. Mana shu “realizatsiya” o‘zbek tilida o‘rni bilan “realashish” yoki “realashtrish”, “vujudga kelish” yoki “vujudga keltirish”, “bajarilish” yoki “bajarish”, “amalga oshish” yoki “amalga oshirish”, ijro, tahaqquq deyiladi.

Ikkinchi, “realizatsiya” pul ma‘nosidagi “riyol” so‘zidan yasalgan. Bu so‘z hozir Eronda

pul birligi sifatida ishlatiladi. Ispaniyada eski vaqtdagi oq kumush tanga “real” deb atalgan. O‘zbek tilida kumush tanga oqcha yoki “aqcha” deb ataladi. Mana shu aqcha ma‘nosidagi riyol so‘zidan pullash ma‘nosidagi “realizatsiya” so‘zi yasalgan. Bu “realizatsiya” o‘zbek tilidagi “pullanish va pullash” so‘zlariga to‘g‘ri keladi. Hozir bu so‘z xuddi shu shaklda o‘zbek tilida ham, xususan, ilmiy nutqda ham qo‘llanilmoqda.

“Missiya” so‘zi. Bu so‘zning o‘zagi “yuborish” ma‘nosiga ega bo‘lgan lotincha “missio” so‘zi bo‘lib, hozirgi rus tilida uning bir necha ma‘nosi bor. Dastlab bu so‘z diniy ma‘noda qo‘llangan va “missiya” deganda, xristian dinini targ‘ib qilish va shu ish bilan shug‘ullanuvchi tashkilot tushunilgan. Shu ma‘noda, missiya bilan shug‘ullanuvchi, ya‘ni o‘zga dindagilarni xristian diniga kiritishga amaliy harakat qiluvchilar “missioner” deyiladi. Missionerlar borgan yerlarida o‘z dinlariga va millatlarga chuqur muhabbat va yerli xalq vakillarini bir-biriga yomon ko‘rsatib, nifoq chiqarish maqsadida juda ehtiyotkorona, milliy urf-odatlarga kamoli ehtirom bilan munosabatda bo‘lib, kasallarni davolash, xayru ehsonlar qilish kabi amallarni xolisona shaklda amalga oshirib, ularni o‘z dinlari va hukmdorlarining asoratiga tushirishga tayyorlab beradilar. Bitta-ikkita farishtasifat missionerni ko‘rgan sodda xalq bularni yuborgan imperialistlarning hammasi shunday ekan deb tasavvur qiladi va ularga darvozani ochib beradi. Ular bostirib kelgandan keyin maqsadlari yerli xalqni ekspluatatsiya qilib, ularni alohida xalq sifatida yo‘qotishga qaratilgan harakatlari ayon bo‘lganda vaqt o‘tgan bo‘ladi.

Missiyaning dinii jihatdan muqaddasligini nazarda tutgan holda, “missiya” so‘zini siyosiy jihatdan muhim bo‘lgan elchilik va shunga oid narsalarga nisbatan ham ishlatadigan bo‘lganlar. Natijada hozir bu so‘z biror yerga muhim bir vazifa bilan borishni va umuman, topshiriqni bildiradi.

Mening qiladigan ishim yoki vazifam yoxud menga topshirilgan ish siz bilan ahdnoma tuzishdan iborat degan gapni ruscha “Моя миссия заключается в составлении договора с вами”, deyish mumkin.

“Missiya” so‘zi kasb va hunar bilan bog‘liq vazifaga nisbatan ham qo‘llanishi mumkin. Masalan, “миссия поэта” shoir burchi, “миссия искусствa” san‘atning vazifasi degani. Bunda vazifaning yuksakligi nazarda tutiladi. Yana missiya so‘zi bir davlatning ikkinchi davlatdagi vakillari va ularning idorasiga nisbatan ham qo‘llanadi. Undan tashqari, bir davlatdan ikkinchi davlatga yuborilgan maxsus vakillar ham “missiya” deb ataladi. Masalan, “торговая миссия” — savdo vakillari degani.

“Aberratsiya” so‘zi. Bu so‘zning lug‘aviy ma‘nosi chetlashish bo‘lib, ilmda asosan ko‘rish va ko‘rish asboblari yuz beradigan noaniqlikka nisbatan ishlatiladi. Ko‘zga yoki optik asboblarda aksning buzilib, chaplashib yoki xira tushishi, Yerning quyosh atrofida aylanishi natijasida osmon jismlarining chaplashib ko‘rinishi, rangsiz nurning turli rangda yopilishi aberratsiyadir.

Biologiyada bu so‘z zotning aynishiga nisbatan ham qo‘llanadi.

Rus tilida “aberratsiya” so‘zi g‘ayriilmiy, lekin kitobiy nutqda ham qo‘llanadi va haqiqatdan chetlashish, adashish degan ma‘nolarni bildiradi.

“Moratori” so‘zi. Bu so‘zning asli lotincha bo‘lib, kechiktiruvchi degan ma‘noga ega. Hozirgi bir necha tilda bu so‘z iqtisodiy atama sifatida favqulodda hodisalar natijasida to‘lovni kechiktirish ma‘nosida qo‘llanadi.

Alibek RUSTAMOV,
filologiya fanlari doktori,
akademik

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1146.
34685 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo‘ronov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘Za yakuni — 07:05